

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

Tursunova Munisaxon Xayriddinovna

**“Uchinchi sinf "O`qish kitobi" ning grammatik xususiyati va
didaktik tuzilishi”**

5111700– Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishi
bakalavri darajasini olish uchun yozilgan

bitiruv malakaviy ishi

(2017-2018 - o'quv yili)

Ilmiy rahbar:

A.R.Hamroyev,
o'qituvchi

Rasmiy opponent:

N.B.Adizova,
o'qituvchi

BUXORO – 2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**“Uchinchi sinf "O`qish kitobi"ning grammatik xususiyati va
didaktik tuzilishi”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5111700– Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi “4-2BTU-14” guruh talabasi

Tursunova Munisaxon Xayriddinovna

Ilmiy rahbar:

A.R.Hamroyev,
o'qituvchi

Rasmiy opponent:

N.B.Adizova,
o'qituvchi

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
10-sonli bayonnomasi 07.05.2018 - yil

BUXORO – 2018

"Tasdiqlayman"
kafedra mudiri
_____prof. M.H.Mahmudov
12.09.2017- yil.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha topshiriq

1. Kafedra: Boshlang'ich ta'lim kafedrası.
 2. Ish mavzusi: **"Uchinchi sinf "O`qish kitobi" ning grammatik xususiyati va didaktik tuzilishi"**
 3. Bajaruvchi: Tursunova Munisaxon Xayriddinovna
 4. Ilmiy rahbar: A.R.Hamroyev
- Ish mavzusi BuxDUning _____yil _____sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan.
5. Yakunlangan ishning topshirish muddati: 28.05. 2018- yil
 6. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun talabaga berilgan topshiriqning qisqacha mazmuni va bajarish muddati:
 - Mavzuga daxldor adabiyotlarni to'plash hamda o'qib chiqish (oktabr oyi).
 - BMIning kirish qismini yozish (noyabr oyi).
 - BMIning 1-bobini yozib, qo'lyozma nusxasini ilmiy rahbarga topshirish (dekabr oyi).
 - BMIning 2-bobini yozib, qo'lyozma nusxasini ilmiy rahbarga topshirish (yanvar oyi).
 - BMIning xulosa qismini yozish (fevral oyi).
 - Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish (mart oyi).
 - BMIning tahrir qilingan nusxasini kompyuterda terish hamda daftarda ko'chirish (aprel oyi).
 - BMIni Boshlang'ich ta'lim kafedrasiga topshirish (may oyi).
 7. Chizmalar miqdori: _____
 8. Topshiriq berilgan vaqt: 2017- yil sentabr
 9. Bitiruv malakaviy ish himoya qilingan kun: _____
 10. Davlat attestatsiyasi tomonidan qo'yilgan baho: _____
- Talaba imzosi: _____

**Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubi
kafedrasining 2-son yig'ilish bayonnomasidan**

Ko'chirma

2017- yil 12-sentabr

Qatnashdilar: prof. M.H.Mahmudov (rais), dotsentlar: Y.Azimov, F.Qosimov, T.Choriyev, G'.Sayfullayev, S.Avezov, A.Hamroyev, M.Tilavova, B.Jamilova, L.Sharipova, G.Hasanova, F.Safarov, N.Safarova; katta o'qituvchilar: M.Qosimova, S.Xo'jayeva, M.Negmatova, I.Davronov, Sh.Istamova, G.Umarova, N.Tosheva, Z.Umurov, H.Nusratova (kotiba); o'qituvchilar: B.Yo'ldoshev, M.Ro'ziyeva, I.Sharipova, L.Ochilova, N.Adizova, M.Hakimova, R.Xalilova, S.Ro'ziyeva, S.Maxmudova.

KUN TARTIBI

1. Bitiruv malakaviy ish mavzulari va ilmiy rahbarni tasdiqlash.

KAFEDRA QAROR QILADI:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-kurs bitiruvchisi Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaga bitiruv malakaviy ishi yozishga ruxsat etilsin.
2. Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning "Uchinchi sinf "O`qish kitobi"ning grammatik xususiyati va didaktik tuzilishi" mavzusi bitiruv ishi tarzida tasdiqlansin.
3. Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning bitiruv malakaviy ishiga A.R.Hamroyev ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Kafedra mudiri:
Kotiba:

M.H.Mahmudov
H.Ch.Nusratova

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishi
bitiruvchisi Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning o'zlashtirishi
haqida

M A ' L U M O T N O M A

Talaba Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning Buxoro davlat universitetida 2014-2018-yillarda o'qishi davomida o'quv rejasini to'liq bajardi va quyidagi baholarda o'zlashtirishga erishdi:

“a'lo” _____ ta

“yaxshi” _____ ta

“qoniqarli” _____ ta

Fakultet dekani:

B.J.Umarov

**Boshlang'ich ta'lim kafedrasining
10-son yig'ilish bayonnomasidan**

Ko'chirma

2018 yil 16-may

Qatnashdilar: prof. M.H.Mahmudov(rais), dotsentlar: dots. T.R.Choriyev, Y.Azimov, F.Qosimov, G'.Sayfullayev, S.Avezov, A.Hamroyev, M.Tilavova, B.Jamilova, L.Sharipova, G.Hasanova, F.Safarov, N.Safarova; katta o'qituvchilar: M.Qosimova, S.Xo'jayeva, M.Negmatova, I.Davronov, Sh.Istamova, G.Umarova, N.Tosheva, Z.Umurov, H.Nusratova (kotiba); o'qituvchilar: B.Yo'ldoshev, M.Ro'ziyeva, I.Sharipova, L.Ochilova, N.Adizova, M.Hakimova, R.Xalilova, S.Ro'ziyeva, S.Maxmudova.

KUN TARTIBI:

1. Bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi.

KAFEDRA QAROR QILADI:

1. Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning "Uchinchi sinf "O`qish kitobi"ning grammatik xususiyati va didaktik tuzilishi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga javob beradi, u sinov himoyasidan o'tdi deb hisoblansin va rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

2. Talaba Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning bitiruv malakaviy ishiga o'qituvchi N.B.Adizova rasmiy opponent etib tayinlansin.

Kafedra mudiri:
Kotiba:

M.H.Mahmudov
H.Ch.Nusratova

Davlat Attestatsiya Komissiyasiga
Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Tursunova Munisaxon Xayriddinovnaning "Uchinchi sinf "O`qish kitobi"ning grammatik xususiyati va didaktik tuzilishi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

Himoyaga bitiruvchining o'zlashtirishi to'g'risida ma'lumotnoma, bitiruv malakaviy ish haqida ilmiy rahbar hamda kafedra yig'ilishi xulosasi, taqriz va talabaga tavsifnoma ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

B.J.Umarov

Buxoro davlat universiteti 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabasi Tursunova Munisaxon Xayriddinovning **“Uchinchi sinf "O`qish kitobi"ning grammatik xususiyati va didaktik tuzilishi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga DAKning

XULOSASI

Buxoro davlat universiteti DAK Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi BMIning bajarish haqidagi 22.05.2009- yil 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomda asosan quyidagilarni aniqladi:

1. BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: tabiiy yo'nalishlar-50dan, ijtimoiy yig'ilishlar-70 betdan kam bo'lmasligi kerak): talabga javob beradi-10 ball talabga qisman javob beradi-7 ball, talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball.
2. Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan-8 ball, grant loyihasi bo'yicha-7 ball, Bux DU dasturi bo'yicha-6 ball, dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball.
3. Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: etarli darajada asoslangan-5 ball, etarli darajada asoslanmagan-3 ball, noaniq-2ball.
4. Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi: aniq-7 ball, to'liq aniq emas-5 ball, aniq emas-3 ball.
5. BMI bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to'la-7 ball, qisman-5 ball, etarli emas-3 ball.
6. Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi: natija yangi -8 ball, ilgari olingan-6 ball, to'la ishonchli emas-3 ball.
7. BMIning xulosa qismida ishlab chiqarishga tavsiya bor-6 ball, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...) tavsiya qilingan-5 ball, tavsiya yo'q-3ball.
8. Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarni tanqidiy baholanganligi darajasi: aniq-8 ball, to'la aniq emas-6 ball, tanqidiy baholanmagan-4 ball.
9. Ishning ilmiylik xarakteri: ilmiy tadqiqodlar asosida-8 ball, aralash shaklidan-5 ball, referativ xarakterdan-3 ball.
10. Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi: ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan-8 ball, ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan-6 ball, faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan-4 ball.
11. Bitiruvchining ma'ruzasiga baho: a'lo-10 ball, yaxshi-7 ball, qoniqarli-6 ball.
12. Berilgan savollarga javoblari: to'liq-8 ball, o'rta-6 ball, qoniqarli 4 ball.
13. BMIni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi: a'lo-7 ball, yaxshi-6 ball, qoniqarli-5 ball.
14. BMIGA qo'yilgan yakuniy ball _____

Bahosi _____

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi:

A'zolari:

dots. A.R. Sohibov

prof.M.H. Mahmudov

dots. F.M. Qosimov

o'qituvchi O. Adizova

o'qituvchi F.S. Safarova

katta o'qituvchi

H.Ch.Nusratova

DAK kotibi:

Sana “ ____ ” _____ 2018 yil

REJA

KIRISH.

I BOB. UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLIGINING SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI.

1.1. Uchinchi sinf o‘qish darsligining tuzilishi va matnlarining DTS va namunaviy dastur talablariga mosligi.

1.2. Uchinchi sinf o‘qish darsligi materiallarining bo‘limlar bo‘yicha tematik tartiblanishi.

1.3. Uchinchi sinf o‘qish darsligi matnlarining adabiy tur va janrlar bo‘yicha tarkiblanishi.

1.4. Darslikdagi rasmlar va ularning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida.

I bob bo‘yicha xulosa.

II BOB. UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLIGINING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.

2.1. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”da ko‘p ma’noli hamda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarining ishlatilishi.

2.2. Uchinchi sinf o‘qish darsligi materiallarida o‘zlashma, uslubiy bo‘yoqdor, faol va nafaol so‘zlarning qo‘llanishiga doir .

2.3. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”da imlosi va izohi qiyin so‘zlarning ifodalanishi.

2.4. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi” matnlarining grammatik xususiyatlari.

II bob bo‘yicha xulosa.

3.1. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi asarlarni o‘qitishda o‘quvchilar lug‘atini b **III BOB**

III BOB. UCHINCHI SINF “O‘QISH KITOBIDAGI ASARLARNI O‘QITISH METODIKASI

3.1. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi asarlarni o‘qitishda o‘quvchilar lug‘atini boyitish metodikasi

3.2. “O‘qish kitobi”dagi nasriy asarlarni o‘qitishda lug‘at ustida ishlash yo‘llari.

3.3. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi nasriy asarlarni o‘qitishda o‘quvchilar nutqini boyitish usullari.

3.4. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi she’riy asarlarni o‘qitishda she’r tuzilishi yuzasidan ma’lumot berish uslubiyoti.

3.5. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi she’riy asarlarni o‘qitishda dastlabki she’r san’atlari ustida ishlash metodikasi.

III bob bo‘yicha xulosa.

UMUMIY XULOSALAR.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

ILOVALAR.

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Milliy istiqlolga erishibmizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov yosh avlod ta’lim-tarbiyasi masalasini davrimizning e’tibordagi bosh – birinchi darajali vazifasi ekanligini belgilab berdilar. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Davlat ta’lim standartlari”ning hayotga joriy etilishi bu boradagi ishlarning yaqqol dalilidir. Maktabda badiiy adabiyot o‘qitishning maqsadi: keng ma’noda savodli va ma’naviyatli kishilar tayyorlab chiqarish, ularning kelajakda faol ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur bo‘lgan og‘zaki va yozma nutq malakalari bilan qurollantirishdir. O‘qish darslarini zamon ruhi bilan hamnafas olib borish O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi bilan o‘zbek tiliga e’tiborning kuchayishi ilm-fan sohasida ham katta Bitiruv malakaviy ishlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu davrda milliy tilning nozik qirralarini bilish, undan nutq jarayonida unumli va samarali foydalanish madaniylik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Uchinchi sinf o‘qish darsligidagi badiiy asarlarni o‘qitishda o‘quvchilarning nutq boyligini oshirish, badiiy adabiyotning tur va janrlari xususiyatlari bilan tanishtirish va bu ishlarni uyushtirish yo‘llari haqida juda ko‘plab ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar bajarilgan hamda talay tavsiyalar berilgan. Biz ham bu sohada ishlangan Bitiruv malakaviy ishlarga murojaat etib, qilingan ishlarni keng va atroflicha tahlil qilishga, bu sohada yechimini kutayotgan o‘rganilishi zarur masalalarga e’tiborni qaratishga harakat qildik. “O‘qish kitobi” darsligi orqali ona tilimizning rang-barang xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, uning boy qirralarini hushyorlik bilan anglash va ehtiyotkorlik bilan ishlatishni o‘quvchilarga singdirish kun tartibidigi eng dolzarb masala, deb belgiladik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Uchinchi sinf o‘qish darsligining leksik, grammatik jihatlarini tasniflash va o‘qitish tizimiga matn bilan ishlashning zamonaviy usullarini kiritish.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari:

1. Mavzuga doir ilmiy va metodik adabiyotlarni o'rganish, ularni o'zaro taqqoslash, tahlil qilish.
2. Darslikning DTS va namunaviy dastur – me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini o'rganish.
3. O'qish darsligidagi asarlarning lug'at tarkibini tahlil qilish, ularning o'z va ko'chma, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini belgilab chiqish.
4. Darslikning grammatik tabiati – morfologik shakli va sintaktik xususiyatlarini nazariy tahlil qilish.
5. Badiiy asar namunalaridagi imlosi va izohi qiyin so'zlar ustida ishlashning samarali vositalari bilan o'rtoqlashish.
6. Darslikdagi she'riy asarlar bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida badiiy tasvir vositalari va she'r tuzilishiga oid dastlabki ma'lumotlarni mutaxassislariga tavsiya etish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Munozaraga tashlanayotgan masala – “Uchinchi sinf “O'qish kitobi”ning leksik, grammatik xususiyatlari va o'qitish uslubiyoti” yuzasidan avval ishlangan ilmiy, ilmiy-uslubiy ma'lumotlarni yig'ib, ular yuzasidan shaxsiy mulohazalarimizni tahlilga kiritdik. Mavzu borasida metodist olimlarimiz K. Qosimovning “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi” (Toshkent: O'qituvchi, 1985.), T. Ashrapova, I. Odilovlarning “Ona tili metodikasi” (Toshkent: O'qituvchi, 1984.), K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sarievlarning “Ona tili o'qitish metodikasi” (Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.) M. Yusupovning O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish” (Toshkent: O'qituvchi, 1990.), A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlarning “Adabiyot o'qitish metodikasi” (Toshkent: O'qituvchi, 1992.) ishlaridan hamda so'nggi yillarda nashr etilgan “O'zbek tili va adabiyoti”, “Til va adabiyoti ta'limi”, “Boshlang'ich ta'lim” jurnallari va respublika miqyosidagi ilmiy-uslubiy anjuman materiallari bilan atroflicha tanishib, ulardan nazariy hamda amaliy material sifatida foydalandik.

Bitiruv malakaviy ish obyekti: Boshlang'ich ta'limning uchinchi sinfi.

Bitiruv malakaviy ish predmeti: Umumiy o'rta ta'limning 3-sinf “O'qish kitobi” darsligi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy asoslari: Darslikdagi badiiy asarlarning leksik, grammatik va badiiy ifodasini tahlil etish barobarida o'quvchilarning til

boyliklarini oshirish, nutqning sifatli ko‘rinishini o‘rgatish, ularning til boyliklari ma’naviy boyliklarining bir qismi ekanliklarini his etishga ko‘maklashish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni (1997 yil), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ish metodlari. Bitiruv malakaviy ish metodologiyasini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishni amalga oshirishda analiz qilish, sintez qilish, qiyoslash, uzviy tahlil, distributsiya, zidlovga qo‘yish va boshqa metodlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

- uchinchi sinf “O‘qish kitobi” darsligining shakl va mazmun tuzilishi tahlil etildi, uning DTS va namunaviy dastur mazmuni ifodalashi, bo‘limlaridagi materiallarning tematikasi, hajm tuzilishi, badiiy tur va janrlar bo‘yicha tasnifi belgilandi;

- “O‘qish kitobi”dagi badiiy asarlar namunalarining leksik xususiyatlari: ko‘p ma’noliligi, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, o‘zlashmalik darajasi, uslubiy bo‘yoqdorlik belgilari, faol va nafaollikka ko‘ra turlari tahlilga kiritildi;

- darslikdagi asarlarning morfologik va sintaktik tabiati yuzasidan atroflicha tasniflar qilindi;

- darslikdagi nasriy asarlarni o‘qitishda o‘quvchilar nutqini boyitish yo‘llari uchun amaliy takliflar ishlab chiqildi;

- darslikdagi she’riy asarlarda badiiy san’at namunalari, she’r tuzilishiga oid boshlang‘ich ma’lumotlarni o‘quvchilarda shakllantirish ishlari tavsiya etildi.

Bitiruv malakaviy ish tuzilishi. Ish kirish, 3 bob, 13 paragrafdan tashkil topgan.

I BOB

UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLIGINING SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI

1.1. Uchinchi sinf o‘qish darsligining tuzilishi va matnlarining DTS va namunaviy dastur talablariga mosligi

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3- sinf uchun amaldagi o‘qish darsligi Muhabbat Umarova, Xurshida Hamraqulova, Ra’no Tojiboevalar tomonidan tuzilgan bo‘lib, 2012 yil “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida nashr etilgan. Darslikning mas’ul muharriri filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov, taqrizchilari: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, bolalar shoiri Tursuboy Adashboev, O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Abduroziq Rafiev, Respublika ta’lim markazi boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i Nazira Ahmedova, Toshkent viloyati PKQTMOI dotsenti Rixsi Ubayxo‘jaeva, Toshkent shahar 26- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Yulduz Jabborovalar.

Uchinchi sinf o‘qish fani DTS¹ asosida o‘quv rejada haftasiga 5 soat, yillik 170 soat (sinfda o‘qish – 153 soat, sinfdan tashqari o‘qish – 17 soat) belgilangan hamda namunaviy o‘quv dasturda quyidagi bo‘limlar keltirilgan: 1.Ona bitta, Vatan yagona (19 soat), 2.Xalq og‘zaki ijodi (17 soat), 3.Kuz manzarasi va mehnat (14 soat), 4.O‘tmishni o‘rganish – burchimiz (13 soat), 5.Kumush qish (6 soat), 6.Vatan himoyachilari (6 soat), 7.Orzular qanotida (10 soat), 8.Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik (18 soat), 9.Keldi bahor – gulbahor (11 soat), 10.Tabiatni seving va asrang (6 soat), 11.Go‘zal fazilat – inson husni (20 soat), 12. 9- may – Xotira va Qadrlash kuni (4 soat), 13.Yoz fasli – soz fasl (6 soat). Dastur bo‘limlariga darslikning bo‘limlari nomi va ajratilgan soatlari to‘la mos keladi.

1. “Ona bitta, Vatan yagona” bo‘limi uchun darslikda 16 ta mavzu berilgan, o‘quv dasturda esa 12 ta mavzu tavsiya etilgan. Dasturdagi “Matonatli inson” matni darslikka kiritilmagan holda Orif To‘xtashning “O‘zbekiston”, Miraziz A’zamning

1 Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (1-4-sinflar). Toshkent, 2010. – 144 b.

“Vatan”, Erkin Malikovning “Vatanimiz gerbi – tug‘ro haqida ertak”, Kavsar Turdievaning “Obod mahalla bo‘ylab”, Erkin Malikovning “Vatan” asarlari keltirilgan.

2. “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limi uchun darslikda 14 ta mavzu keltirilgan, o‘quv dasturda esa 6 ta mavzu tavsiya etilgan. “Ahillik – ulug‘ baxt”, “Danakvoy”, “Masallar”, “O‘jar Toshbaqa”, “Maqollar”, “Topishmoqlar”, “Latifalar”, “Tez aytish” kabi mavzular o‘quv dasturda berilmagan. Shu bo‘limda keltirilgan “Oltmish gaz arqon” ertagi dasturda bu bo‘lim uchun emas, “O‘tmishni o‘rganish – burchimiz” bo‘limiga tavsiya qilingan.

3. “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limi uchun darslikda 12 ta mavzu berilgan, o‘quv dasturda esa 11 ta mavzu tavsiya etilgan (2-mavzu nashrda tushib qolgan). Darslikdagi “Kuz”, “Bobur va kabutar” matnlari dasturdan o‘rin olmagan.

4. “O‘tmishni o‘rganish – burchimiz” bo‘limi uchun darslikda 9 ta mavzu, o‘quv dasturda esa 8 ta mavzu tavsiya etilgan. “Oltmish gaz arqon” ertagi dasturda bu bo‘lim uchun keltirilgan bo‘lsa-da, darslikla “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida berilgan. Mirkarim Osimning “Yosh hakim” va “Alpomishning bolaligi” asarlari matni dasturdan o‘rin olmagan.

5. “Kumush qish” bo‘limi uchun darslikda 10 ta mavzu, o‘quv dasturda esa 8 ta mavzu tavsiya etilgan. Dasturda keltirilmagan Yayra Sa’dullaevaning “Qish bo‘lmasa-chi?”, Tamilla Qosimovaning “Yaxmalak” asarlari darslikda berilgan.

6. “Vatan himoyachilari” bo‘limi uchun darslikda 7 ta mavzu keltirilgan, o‘quv dasturda esa 6 ta mavzu tavsiya etilgan. Po‘lat Mo‘minning “O‘ktam avlod” she‘r darslikdagina berilgan. Negadir, dasturda tavsiya etilgan “Bugun bolamiz, ertaga askar bo‘lamiz” mavzusi darslikda “Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz” tarzida, 1-shaxs ko‘plik, 2-shaxs ko‘plik shaklida berilgan.

7. “Orzular qanotida” bo‘limi uchun darslikda 9 ta mavzu, o‘quv dasturda esa 9 ta mavzu tavsiya etilgan. Dasturdagi “Yaxshilik”, “Kompyuter olami”, “Sayyoralar”, “Sohiba kimdan xafa?” tavsiya matnlar o‘rniga Miraziz A‘zamning “Kelajak bizniki”, Abdusalom Umarovning “Koinotga sayohat”, Muazzam Ibrohimovaning “Zamonaviy oila”, Erkin Malikovning “Unutilmas bayram”

mavzulari berilgan.

8. “Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik” bo‘limi uchun darslikda 10ta mavzu, o‘quv dasturda esa 8 ta mavzu tavsiya etilgan. Dasturdagi “Hisob ilmidagi yangilik” matni darslikda keltirilmagan, Mirkarim Osimning “Zehni o‘tkir bola”, “Navoiyning do‘sti”, Safar Barnoev “Minora” matnlari berilgan.

9. “Keldi bahor – gulbahor” bo‘limi uchun darslikda 13 ta mavzu keltirilgan, o‘quv dasturda esa 13ta mavzu tavsiya etilgan. Dasturdagi “Ko‘ulam yomg‘iri matni o‘rniga darslikda Obid Rasulning “Sochpopuk taqdilar” mavzusi taqdim qilingan.

10. “Tabiatni seving va asrang” bo‘limi uchun darslikda 6 ta mavzu, o‘quv dasturda esa 5 ta mavzu tavsiya etilgan. “Ona tabiat”, “Yersevarni – el sevar”, “Suhbat”, “Non haqida, “Soy suvi haqida ertak” mavzulari dasturga to‘la mos bo‘lib, darslikda Habib Rahmatning “Bog‘im” asari tavsiya qilingan.

11. “Go‘zal fazilat – inson husni” bo‘limi uchun darslikda 18 ta mavzu, o‘quv dasturda esa 16 ta mavzu tavsiya etilgan. Dasturda tavsiya qilinmagan Mahmud Murodovning “Sohiba kimdan xafa?, Nurmat Maqsudiyning “Yaxshilik” hikoyalari darslikdan o‘rin olgan, qolgan 16 mavzu dasturga mos.

12. “9-May – Xotira va qadrlash kuni” bo‘limi uchun darslikda 4ta mavzu, o‘quv dasturda ham 4ta mavzu tavsiya etilgan, mavzular to‘la mos.

13. “Yoz fasli – soz fasl” bo‘limi uchun darslikda 5ta mavzu keltirilgan, o‘quv dasturda ham 5ta mavzu tavsiya etilgan, lekin dasturdagi “O‘ktam avlod” asari o‘rniga Hamidulla Yoqubov “Inson insonga o‘rtoq” she‘ri berilgan.

Namunaviy dasturda 110 ta, darslikda esa 135 ta mavzu tavsiya etilgan, 104 ta mavzu dastur va darslikka to‘la mos keladi.

O‘quv yili yakunida 3-sinf o‘quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar:²

Bilim:

- hikoya, she‘r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, rivoyat, hikoyat, masal, ibora, afsonani janrigako‘ra farqlay olish;
- badiiy asar mazmuniga munosabat bildiradi olish;

Ko‘nikma:

- matndagi so‘zlarning ma’nolarini izohlay olish;
- maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalana bilish;
- asardagi qahramonlar haqida kichik hikoya tuza olish;
- bolalar yozuvchilarining turli janrdagi asarlarini mustaqil ravishda tanlab o‘qiy olish.

Malaka:

- ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq qo‘shiqlari, qissalardan parchalarni to‘g‘ri, ongli, ifodali, sidirg‘a o‘qish;
- o‘qilgan badiiy asarga reja tuzish;
- asar mazmunini qayta hikoyalashda o‘xshatish;
- asar mazmunini qisqartirib, qayta hikoyalash;
- o‘qigan asari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini erkin bildirish;
- bir daqiqada 60-70 ta so‘z o‘qish;
- o‘quv yili yakunida 15 ta she’rni yoddan ifodali aytib berish;
- mustaqil o‘qish uchun bir mavzu doirasida bir necha asar tanlay bilish va ifodali o‘qish;
- o‘qilgan asar asosida kichik sahnalar qo‘yish.

1.2. Uchinchi sinf o‘qish darsligi materiallarining**bo‘limlar bo‘yicha tematik tartiblanishi**

Mavzu – bu adabiyot va san’atda ijodkor tomonidan tanlanib, uning g‘oyasini aks ettiradigan badiiy tasvir ob’ekti, hayotiy material doirasi³dir. Shu asosda darslikdagi matnlarni quyidagi mavzularga tasnif etdik.

I. Mustaqillik haqidagi matnlar: Abdulhay Nosirovning “Istiqlolga sharaf-shon”, Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor”, Po‘lat Mo‘minning “Mustaqillik ahillikdan” she’rlari; Erkin Malikovning

³ ЎЗМЭ. Тошкент: ЎЗМЭ, 2003. – 5 том. – Б.341.

“Vatanimiz gerbi – tug‘ro haqida ertak”, Abdusalom Umarovning “Istiqlol” kemasi” matni.

II. Ona-Vatan haqidagi matnlar: Kavsar Turdievaning “Obod mahalla bo‘ylab”, Maqsud Shayxzodaning “Jigarlarga tilaklarim” va “Toshkentim – onam”, Miraziz A‘zamning “Vatan”, “Kelajak bizniki”, Orif To‘xtashning “O‘zbekiston”, Rauf Tolibning “Yurtim kamoli”, Tursunboy Adashboevning “Ona tilim”, Shuhratning “Salom, maktab” she‘rlari; Muazzam Ibrohimovanning “Zamonaviy oila” hikoyasi, Aziz Abdurazzoqning “Vatanni suymak” hikoyati, Oydinning “Oltmish gaz arqon” ertaklari; Muhabbat Hamidovanning “Ona-Vatan”, Ullibibining “E‘zoz”, Xurshid Davronning “Vatan mo‘tabardir”, Erkin Malikovning “Toshkent” matni.

III. Tarixiy shaxslar haqidagi matnlar: Mirkarim Osimning “Yosh hakim”, “Jaloliddin Manguberdi” va “Zehni o‘tkir bola”, Oybekning “Bola Alisher”, Pirimqul Qodirovning “Bobur va Humoyun” hikoyalari; Abduqodir Hayitmetovning “Donolarning donosi”, Mirzo Karimning “Saylda”, Xayriddin Sultonning “Zahriddin Muhammad Bobur”, “Sohibqiron Temur bobo” hikoyatlari; Bo‘riboy Ahmedovning “Elim deb, yurtim deb yashagan inson” matni, “Bobur va kabutar”, “Ibn Sinoning shogirdlari”, “Navoiyning do‘sti”, “Cho‘pon yigit Shiroq” rivoyatlari.

IV. Umumxalq bayramlarimiz haqidagi matnlar: Dilfuza Kamoljonovanning “Yangi yil archasiga”, Miraziz A‘zamning “O‘zbekiston posbonlari”, Safar Barnoevning “Bosh kitob”, Habib Rahmatning “Botir askarcha”, Yusuf Shomansurning “Bayramingiz muborak” she‘rlari; Erkin Malikovning “Unutilmas bayram” hikoyasi, Dilfuza Kamoljonovanning “Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin”, Yoqutxon Rahimovanning “Eng muqaddas kun”, Malik Murodovning “Mehrjon sayli” va “Yersevarni – el sevar matni”, Muzayyana Alaviyaning “Navro‘z – bahor bayrami” matnlari.

V. Kishilarning mehnat faoliyati haqidagi matnlar: Safar Barnoevning “Minora”, Tolib Yo‘ldoshning “Hunarni sev”, Yusuf Shomansurning “Daraxtlarni oqlaganda she‘rlari; Abdulla Qodiriyning “Gulzorda” Abdusodiq Irisovning

“Qo‘shterak”, Qayum Tangriqulovning “Non haqida”, Oybekning “Mehnatkash qiz”, Safar Barnoevning “Bobonur”, O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak”, Hakim Nazirning “Bebaho boylik” va “Yaxshilik yerda qolmas”, Xudoyberdi To‘xtaboevning “Hassa” hikoyalari; Zohir A‘lamning “Soy suvi haqida ertak”, Feruza Jalilovaning “Qo‘riqchining sabog‘i”, Yayra Sa‘dullaevaning “Danakvoy” va “Suhbat” ertaklari; Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Chumoli va Tipratikan” masali, Sa‘diy Sheroziyning “Hotami Toy” rivoyati.

VI. Ilm haqidagi matnlar: Po‘lat Mo‘minning “O‘ktam avlod”, Rauf Tolibning “Biz – istiqlol farzandlarimiz”, Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida” she‘rlari; Jamila Haydarovaning “Ikki qiz”, Nurmat Maqsudiyning “Ilmli ming yashar”, Farhod Musajonning “Barakalla, bo‘tam” hikoyalari; “Til qudrati” rivoyati.

VII. San‘at, kitob va sportni sevis haqidagi matnlar: Oygul Suyundiqovanning “Vatan iftixori”, Shuhratning “Qalamning o‘kinchi” she‘rlari; Tohir Malikning “Kitob” hikoyalari; “Alpomishning bolaligi” ertagi va Abdusalom Umarovning “Koinotga sayohat” fantastik ertagi.

VII. Do‘stlik haqidagi matnlar: Kavsar Turdievaning “Dunyoni saqlar bolalar”, Hamidulla Yoqubovning “Inson insonga o‘rtoq” she‘rlari; Abdulla Qodiriyning “Chin o‘rtoq”, Yo‘ldosh Shamsharovning “Varrak”, Mahmud Murodovning “Olma”, Nurmat Maqsudiyning “Yaxshilik”, Sunnatilla Anorboevning “Bahs”, O‘tkir Hoshimovning “Chana” hikoyalari; “Botir mergan va chaqimchi”, “Donishmand yigit”, “Halollik”, “Ahillik – ulug‘ baxt”, “Noahillik oqibati”, “Do‘stlar” ertaklari, Hamidulla Yoqubovning “O‘jar Toshbaqa” masali.

IX. Ota-ona, ustozlar haqidagi matnlar: Anvar Obidjonning “O‘qituvchining o‘gitlari”, Safo Ochilning “Ota-ona duosi” she‘rlari; Mahmud Murodovning “Sohiba kimdan xafa?”, Mirzakalon Ismoilning “Bobongiz xafa bo‘lsalar maylimi?”, Sobit G‘afurovning “Mag‘zi shirin”, Shukur Xolmirzaevning “Yo‘lda”, Yayra Sa‘dullaevaning “Yordam berdi” hikoyalari; Qobusning “Qobusnoma”dan “Ota-onani hurmatlash haqida” hikoyati, O‘ktam Usmonovning “Ona mehri” ertaklari, “Onani rozi qilish haqida”gi hadis.

X. Tabiat haqidagi matnlar: Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot”, G‘ayratiyning “Boychechak”, Zafar Diyorning “Bahor yaqin”, “Birinchi qor”, Ilyos Muslimning “Quvnoq o‘tsin ta‘tilingiz”, “Lola”, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz”, Qambar Otaning “Ona tabiat”, Quadrat Hikmatning “Ayamajiz”, Obid Rasulning “Yoz” va “Sochpopuk taqdilar”, Ota Xolmirzaevning “Qish zavqi”, Sulton Jabborning “Qaldirg‘och”, Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda”, Habib Rahmatning “Bog‘im” she‘rlari; Nosir Fozilovning “Quyuncha”, Tamilla Qosimovaning “Yaxmalak”, Yayra Sa‘dullaevaning “Qish bo‘lmasa-chi?” hikoyalari; Aziza Ahmedovaning “Qish” ertagi, “Yilnoma”dan olingan “Qish” va “Oltin kuz”, Dilfuza Kamoljonovaning “Erta bahor” matnlari, Olim Qo‘chqorbekovning “Qaysar buzoqcha” masali, “Tabiat bilan suhbat” rivoyati.

1.3. Uchinchi sinf o‘qish darsligi matnlarining adabiy tur va janrlar bo‘yicha tarkiblanishi

Tahlil qilinayotgan darsligimizda lirik turga mansub she‘rlar, nasriy turga mansub hikoyalar, hikoyatlar, masallar, dramatik tur janriga mansub sahna; xalq og‘zaki ijodi janrlari: ertak, rivoyat, maqol, tez aytish, topishmoq, qo‘shiq, latifalar; matbuot janriga mansub ilmiy-ommabop matnlar va intervyu o‘rin olgan.

She‘r. She‘riy janrga mansub quyidagi 45 nomdagi asarlar keltirilgan: Abdulhay Nosirovning “Istiqlolga sharaf-shon”, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” va “O‘qituvchining o‘g‘itlari”, G‘ayratiyning “Boychechak”, Dilfuza Kamoljonovaning “Yangi yil archasiga”, Zafar Diyorning “Bahor yaqin”, “Birinchi qor”, Ilyos Muslimning “Quvnoq o‘tsin ta‘tilingiz”, “Lola”, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz”, Kavsar Turdievaning “Dunyoni saqlar bolalar” va “Obod mahalla bo‘ylab”, Qambar Otaning “Ona tabiat”, Quadrat Hikmatning “Ayamajiz”, Maqsud Shayxzodaning “Jigarlarga tilaklarim” va “Toshkentim – onam”, Miraziz A‘zamning “Vatan”, “Kelajak bizniki” va “O‘zbekiston posbonlari”, Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor”, Obid Rasulning “Yoz” va “Sochpopuk taqdilar”, Oygul Suyundiqovaning “Vatan iftixori”, Orif To‘xtashning

“O‘zbekiston”, Ota Xolmirzaevning “Qish zavqi”, Po‘lat Mo‘minning “Mustaqillik ahillikdan” va “O‘ktam avlod”, Rauf Tolibning “Biz – istiqlol farzandlarimiz” va “Yurtim kamoli”, Safar Barnoevning “Bosh kitob” va “Minora”, Safo Ochilning “Ota-ona duosi”, Sulton Jabborning “Qaldirg‘och”, Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda” va “Hunarni sev”, Tursunboy Adashboevning “Ona tilim”, Habib Rahmatning “Bog‘im” va “Botir askarcha”, Hamidulla Yoqubovning “Inson insonga o‘rtoq”, Shuhratning “Qalamning o‘kinchi” va “Salom, maktab”, Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida”, Yusuf Shomansurning “Bayramingiz muborak” va “Daraxtlarni oqlaganda”.

Hikoya. Epik janrga mansub 34 nomdagi hikoyalar darslikdan o‘rin olgan: Abdulla Qodiriyning “Gulzorda” va “Chin o‘rtoq” (“Mehrobdan chayon” romanidan parcha), Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak”, Jamila Haydarovanning “Ikki qiz”, Yo‘ldosh Shamsharovning “Varrak”, Qayum Tangriqulovning “Non haqida”, Mahmud Murodovning “Olma”, Mahmud Murodovning “Sohiba kimdan xafa?”, Mirzakalon Ismoilning “Bobongiz xafa bo‘lsalar maylimi?”, Mirkarim Osimning “Yosh hakim”, “Jaloliddin Manguberdi” va “Zehni o‘tkir bola”, Muazzam Ibrohimovanning “Zamonaviy oila”, Nosir Fozilovning “Quyuncha”, Nurmat Maqsudiyning “Ilmli ming yashar”, Nurmat Maqsudiyning “Yaxshilik”, Oybekning “Bola Alisher”, “Mehnatkash qiz” (“Qutlug‘ qon” romanidan parcha), Pirimqul Qodirovning “Bobur va Humoyun”, Safar Barnoevning “Bobonur”, Sobit G‘afurovning “Mag‘zi shirin”, Sunnatilla Anorboevning “Bahs”, Tamilla Qosimovanning “Yaxmalak”, Tohir Malikning “Kitob”, O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak” va “Chana”, Farhod Musajonning “Barakalla, bo‘tam”, Hakim Nazirning “Bebaho boylik” va “Yaxshilik yerda qolmas”, Xudoyberdi To‘xtaboevning “Hassa”, Shukur Xolmirzaevning “Yo‘lda”, Erkin Malikovning “Unutilmas bayram”, Yayra Sa’dullaevanning “Yordam berdi” va “Qish bo‘lmasa-chi?”

Hikoyat. Darslikda 6 nomdagi Qobusning “Qobusnoma”dan “Ota-onani hurmatlash haqida”, Abduqodir Hayitmetovning “Donolarning donosi”, Aziz Abdurazzoqning “Vatanni suymak”, Mirzo Karimning “Saylda”, Xayriddin

Sultonning “Zahridin Muhammad Bobur”, “Sohibqiron Temur bobo” hikoyatlari o‘qishga tavsiya etilgan.

Ertak. Darslikda 16 nomdagi ertaklar o‘rin olgan: Aziza Ahmedovaning “Qish”, Zohir A‘lamning “Soy suvi haqida ertak”, Oydingning “Oltmish gaz arqon”, O‘ktam Usmonovning “Ona mehri”, Feruza Jalilovaning “Qo‘riqchining sabog‘i”, Erkin Malikovning “Vatanimiz gerbi – tug‘ro haqida ertak”, Yayra Sa’dullaevaning “Danakvoy” va “Suhbat” o‘zbek xalq ertaklari: “Botir mergan va chaqimchi”, “Donishmand yigit”, “Halollik”, “Alpomishning bolaligi”, qirg‘iz xalq ertagi “Ahillik – ulug‘ baxt” hind xalq ertaklari: “Noahillik oqibati”, “Do‘stlar” (“Kalina va Dimna”dan) hamda bitta Abdusalom Umarovning “Koinotga sayohat” fantastik ertagi joylashgan.

Ilmiy-ommabop matnlar sanog‘i 14 tani tashkil qiladi: “Yilnoma”dan olingan “Qish” va “Oltin kuz”, Abdusalom Umarovning “Istiqlol” kemasi”, Bo‘riboy Ahmedovning “Elim deb, yurtim deb yashagan inson”, Dilfuza Kamoljonovaning “Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin” va “Erta bahor”, Yoqutxon Rahimovaning “Eng muqaddas kun”, Malik Murodovning “Mehrjon sayli” va “Yersevarni – el sevar matni”, Muzayyana Alaviyaning “Navro‘z – bahor bayrami”, Muhabbat Hamidovaning “Ona-Vatan”, Ullibibining “E‘zoz”, Xurshid Davronning “Vatan mo‘tabardir”, Erkin Malikovning “Toshkent”.

Masal. Darslikda 3 nomdagi masallar keltirilgan: Olim Qo‘chqorbekovning “Qaysar buzoqcha” va Hamidulla Yoqubovning “O‘jar Toshbaqa” masallari she‘riy yo‘lda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Chumoli va Tipratikan” masali hikoyaviy bayonda berilgan.

Rivoyat epik turga mansub bo‘lib, darslikda sakkizta keltirilgan: “Bobur va kabutar”, “Ibn Sinoning shogirdlari”, “Navoiyning do‘sti”, “Tabiat bilan suhbat”, “Til qudrati”, “Cho‘pon yigit Shiroq” Sa‘diy Sheroziyning “Hotami Toy”, va “Qirq hadis”dan olingan “O‘g‘lon”.

Erkin Malikovning bitta dramatik turga mansub sahna asari “Vatan” keltirilgan.

Intervyu – matbuot janriga mansub sanaladi, darslikda bitta “Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz” Iskandar Rahmonov bilan suhbat berilgan.

Hadis. “Onani rozi qilish haqida”gi hadis o‘rin olgan.

1.4. Darslikdagi rasmlar va ularning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida

Inson o‘z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qaerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta’lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo‘lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz⁴, buning uchun davr talabiga mos darsliklarning bo‘lishini ta’lim jarayoni talab etadi. Darslik – DTS, o‘quv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan milliy istiqlool g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr⁵ bo‘lib, unda foydalanilgan matnlar bilan bir qatorda rasmlarning ham ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati yetakchi jihatlardan biri sanaladi. Biz 3-sinf “O‘qish kitobi⁶”ga ishlangan rasmlarni tahlil etib, bu yuzasidan quyida o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tmoqchimiz.

Amaldagi darslikda jami saksonga yaqin rasmlar keltirilgan bo‘lib, ular bo‘limlar va uning mavzularini yaqqol yoritish maqsadida ishlangan. Darslikda o‘n uchta bo‘lim bo‘lib, shulardan 12 bo‘lim ramziy rasmlar bilan belgilangan, faqat bitta “O‘tmishni o‘rganish – burchimiz” bo‘limi uchun rasm keltirilmagan. Agar bu bo‘lim uchun ham rasm belgilanganda o‘quvchi ko‘z o‘ngida bo‘lim yanada yaqqol aks etib turardi.

Darslik muqovasi uchun berilgan rasmda “O‘qish kitobi” 3 belgisi va ikki o‘quvchining kitob mutolaasi bilan bandligi ifoda etilgan. Rasmda daraxtlar, o‘simliklar, tog‘lar, parvozdagi turnalar, bulutlar, imoratlar tasvirlangan. Havosi

⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.130.

⁵ Хасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б.114.

⁶ Umarova M... O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 224 b.

tinig Vatanning musaffo kunlarida baxtiyor ikki o'quvchining saodatli kelajak uchun bilim o'rganishi yorqin ranglarda ifoda etilgan. Rasmda olamning tinchlik belgisi sifatida moviy ranglar uyg'unligi talqini kishi e'tiborini tortadi. Ammo negadir daraxtlar kech kuz manzarasini ifoda etgan holda maysalar yam-yashilligi va tog'ning rangi erta bahorni eslatadi. Darslikning 2010 yilgi nashrining rangi juda yorqin bo'lib, kishining e'tiborini yoshlikka, go'zallikka tortardi, ayniqsa orqa fonda talay predmetlarning tasvir joylashtirilgan edi.

Uchinchi betdagi darslikka kirish mavzusiga Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan olingan: "Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir", – degan so'zlari keltirilib, baxtiyor O'zbekiston bolalarining Mustaqillik arkasi poyida shod va xurram rasmlari ifodalangan. Shu o'rinda bolalar bilan birgalikda murabbiyning surati ham aks ettirilganda ularning o'qish va izlanishlari birligi namoyon bo'lardi.

Darslikdagi talay rasmlarda Sharq gavhari Toshkentimizning gul va baxtga, firuza rangga burkangan ko'chalari va istiqlool osmoniga bo'y cho'zgan binolari, charog'on tunlari kishini uzoq xayolga olib qochuvchi bo'yoqlar bilan tasvirga olingan.

Aziz Abdurazzoqning "Vatanni suymak" ertagi uchun ishlangan rasmda asar personaji Qahramonjonning yaydoq cho'l bag'ridagi quriyotgan hovuz oldida taajjublanib turgani aks ettirilgan, bunda suvning kirish yo'li chizilib, qurib borayotgani ko'rsatilsa, rasm yanada jonli chiqar edi.

"Til qudrati" rivoyati uchun ishlangan 14-betdagi rasmda ikki olimning o'zaro munozarasi yashil dalada aks ettirilgan, axir tortishuv dalada bo'lib o'tganiga rivoyatda ishora yo'q-ku. Olimlarning gavda tasviri buzilgan: ikkinchi keksaning yelkalar nomutanosib, birining soqoli oppoq bo'lgan holda ikkinchisining soqoli qop-qora, rivoyatda ularning tortishganlariga qaragada, yoshlari teng bo'lishi kerak. Xuddi shu ikki donolarni 135-betda ayni shu qiyofada faqat orqa fonda shahar aks ettirilgan holatda ko'ramiz. Bunda bolalar ikkinchi bora ularni bobomiz Navoiy timsolida qabul qila olmasalar kerak. Chunki 136-

betda bobomizning ish ustida ifodalangan rasmi avvalgi betdagi ikki dononing hech biriga o'xshamaydi. Bu o'rinda Navoiy bobomizning o'z rasmlarini keltirish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bu kabi takrorga 122- va 210-betlarda ham duch keldik. Taxta devor bilan o'ralgan hovlida Abdulaziz va Anvar gullar parvarishi bilan mashg'ul. Hovlining ko'rinishi bir-biriga yaqin tasvir etilgan, ayniqsa taxta devor kam farqlanadi. Rasmda Anvar faoliyati bilan bog'liq predmetlar anchayin sun'iy bo'lib qolgan, chunki 19-asrning 50-70- yillarida taxta devorlarning o'zbek xonadonida, yana maxdumning uyida bo'lishi, bu ham yetmagandek darvoza ustiga hozirda urf bo'lgan shapkaning kiydirilishi, gulxonaning betonli chegaralanishi kishini ishontira olmaydi. Hammamiz o'qiganmiz, romanda maxdumning xonadoni bu ko'rinishda emas, balki ichki va tashqi uylardan iborat milliy ko'rinishda bo'lgan.

Kavsar Turdievaning "Obod mahalla bo'ylab" she'riga ishlangan rasm o'ta jonli va hayotiy yorqin ranglarda quvnoq bolalarning beg'ubor o'yinlari zahirida aks ettirilgan. Xuddi shunday o'quvchilar hayotiga doir rasm 22-betda joylashgan, unda murabbiy va o'quvchilarning baxtiyor hayoti, mazmunli suhbat yoritilgan.

"Xalq og'zaki ijodi" bo'limiga ishlangan rasmda o'zbekning dostonchi baxshisi qo'lida dutori bilan ijro ustida aks ettirilgan. Dostonchining oppoq soch-soqoli uning oq umr yo'lini, dutori olam sir-sinoatlarini, uchar otlar insonning cheksizlikka parvozini, go'zal qaldirg'och esa tinchlik-omonlikni ifoda etgan. Rasmda kishi o'zini uchar gilamcha bilan uzoqlarga – ertaklar olamiga uchayotganday his etadi.

"Kuz manzarasi va mehnat" bo'limi uchun, Mahmud Murodovning "Olma", O'tkir Hoshimovning "Xazonchinak" hikoyasi uchun keltirilgan rasmlarda kuzning mahzun ifodasi aks etib, pishiqchilik, mo'l-ko'lchilik monand ranglarda berilgan, yurtning bunyodkorlari o'z mehnatlari bilan faxr tuyg'usini tarannum etayotgani baxtiyorlik bilan namoyish qilmoqda. Dasturxon to'kinchiligi kishining shunday farovon hayotga va uning ijodkori muhtaram prezidentimizga tasannolar aytib, behad shukronalar qilishga undaydi.

Mirkarim Osimning “Jaloliddin Manguberdi” hikoyasi uchun ikki rasm berilgan. Suratlarda Jaloliddinning mo‘g‘ul bosqinchilari bilan olib borgan mardonavor jang manzarasi va daryodan kechib o‘tishdagi mag‘rur harakati ifoda etilgan. Jasur vatanparvarning tillarda doston bo‘lgan mardliklariga bola rasm orqali yana bir bora oshiq bo‘ladi. Bu borada ajdodlarimiz ruhiga yurboshimizning behad hurmatlari baland bo‘lganligini va Manguberdi nomi bilan yuritiladigan davlat nishonimiz bejiz ta’sis etilmagani bu qahramon qarshisida hurmat bajo keltirish, sharaflashimizning isbotidir. Inson dunyoga kelib Vataning uchun, xalqing uchun bor kuchingni berib faoliyat qilsang, mehnatingni dono yurtboshing e’tirof etib, olam barobar ko‘klarga ko‘tarsa, seni millat qahramoni – timsolga aylantirsa. Bu olamdagi eng yuksak baxt emasmi?

“Alpomishning bolaligi”, “Cho‘pon yigit Shiroq”, “Bola Alisher”, “Elim deb, yurtim deb yashagan inson”, “Bobur va Humoyun” asarlariga ishlangan rasmlarda milliy afsonavor qahramonlarimizni kishi qalb tubidagi ranglar bilan aks ettirilgani rassomning yutug‘idir. Xalqimizning o‘lmas orzularini ro‘yobga chiqaruvchi shu kabi pahlavonlar doimo elimizga yor bo‘lishi istalgan. Donishmand yurtboshimiz: “O‘ylanmanki, o‘zini o‘zbek xalqining farzandi degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi, unib-o‘sib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma’naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko‘rsatadi. Va hech shubhasiz, umr bo‘yi el-yurt manfaati, Vatan istiqboli uchun kurashib yashaydigan shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bo‘lmaydi”⁷ deb qahramonlarimizga bejiz ta’rif bemaganlar.

Oybekning “Mehnatkash qiz” mavzusi uchun keltirilgan rasmda kosib Shokir ota va uning asrandi qizi Unsinning ish ustidagi rasmi hamda do‘konning umumiy ko‘rinishi, yangi tikilgan mahsilar aks ettirilgan. Roman parchasini o‘qigan o‘quvchi Unsinning chehrasida balqib turgan mehnatkashligiga rasmni ko‘rgach, yana bir bora iqror bo‘ladi. Ammo hikoyada qizning do‘konda emas, ichkari uyda o‘tirib ish tikkani hikoya qilingan.

⁷ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.169.

Umuman, darslikdagi rasm va suratlar mantlardagi voqealarni o'zida aks ettira olgan, pedagogik va ilmiy talablarga javob beradi, mustaqillik mevalari – farzandlarimizning istiqloldagi baxtli kelajaklarini yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga yuqorida ko'rsatib o'tilgan ayrim mulohazalarimiz qayta nashrda hisobga olib to'g'rilansa, darslikning sifati yanada oshar edi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa:

1. Uchinchi sinf "O'qish kitobi" darsligining shakliy va mazmuniy tuzilishi DTS talablariga mos keladi.

2. Uchinchi sinf o'qish darsligining bo'limlari DTS mavzulariga to'la mos keladi, mavzular biroz zamon talablari bilan yangilangan bo'lsa-da, miqdoran o'quv reja soatlarni qamrab olgan.

3. Darslik materiallarini o'n tur asosida tarkiblagan bo'lsak ham, barcha matnlarning bosh g'oyasi ona-Vatanning baxtli kelajagi uchun, Mustaqillikning abadiyligi uchun, dunyo tinchligi, odamlar baxt-saodatini tarannum qilingan matnlar o'rin olgan.

4. Darslikda she'rlar, nasriy turga mansub hikoyalar, hikoyatlar, masallar, dramatik tur janriga mansub sahna; xalq og'zaki ijodi janrlari: ertak, rivoyat, maqol, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, latifalar; matbuot janriga mansub ilmiy-ommabop matnlar va intervyu o'rin olganligi japnriy rang-baranglikni ta'minlay olgan.

5. Uchinchi sinf o'qish darsligi matnlari she'riy turning barmoq vazniga xos she'r, masal; nasriy turning hiqoya, ertak, ilmiy-ommabop matn kabi janrlarini qamrab olganligi o'quvchilarning adabiy tur janrlari bilan tanishtirish vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

6. Maqol, hikmatli so'z, topishmoq, ertak, masal janrlari haqida nazariy ma'lumot keltirilganligi o'quvchilarning adabiy tasavvurlarini boyitib, kelgusi o'quv faoliyatlarini tashkillashga fundament bo'ladi.

7. Darslikdagi savol va topshiriqlar an'anaviy yo'lning davomi sifatida tashkillangan, ba'zida novatorlik holatlari ham yaqqol ko'rinadi.

8. Uchinchi sinf o'qish darsligining bo'limlari va ularning matnlari uchun keltirilgan rasmlar yorqin rangda kishi e'tiborini tortadigan darajada hamda bolalar yoshiga xosligi bilan maqsadga muvofiqdir.

II BOB

UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLIGINING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

2.1. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”da ko‘p ma’noli hamda so‘zlarning shakl va

Ko‘p ma’noli so‘zlar. Gapdan tashqarida bir ma’noni, gap tarkibida boshqa ma’noni ifodalaydigan so‘zlar **ko‘p ma’noli (polisemantik)** so‘zlar deyiladi. *Televizor, chumchuq, men, sen, kechagi, beshala, bugun* kabi so‘zlar bir ma’noli so‘zlardir. *Tosh* yo‘l, *tosh* yurak birikmalarida *tosh* so‘zi ko‘p ma’noli so‘z. Polisemiya (ko‘p ma’nolilik) tildagi deyarli barcha turkum so‘zlarga xosdir.

Ijodkorning butun mahorati so‘z bilan ishlashda namoyon bo‘ladi. Ko‘p ma’noli so‘z ustida ishlanganda so‘zning barcha qirralarini anglashga e’tibor qaratilib, o‘quvchining uqish darajasini hisobga olinadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘z o‘rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo‘llay olishidan ham aniqlasa bo‘ladi. Ko‘p ma’noli so‘zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi.

Darslikdagi Dilfuza Kamoljonovanning “Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin” nomli ilmiy-ommabop matni (3-4-betlar)da “*Ertaning egalari – Siz yoshlarga fan, ta’lim, madaniyat, sport va san’at sohasida imkoniyatlar eshigini ochib bergan oltin kalitdir.*

1991 yilning 31 avgusti Vatanimiz tarixi sahifalariga oltin harflar bilan yozildi”.

Darslikning 159- betida berilgan Yusuf Shomansurning “Daraxtlarni oqlaganda” she’rida:

Qoldirmay hech daraxtni,

Ohak bilan *oqlashdi*.

O‘quvchilar burchini,

Bu safar ham *oqlashdi*.

Keltirilgan parchada *oqlashdi* soʻzi ikki maʼno ifodalamoqda. Buni quyidagicha lugʻat izohi asosida oʻquvchilarga yetkazamiz:

Oqlamoq 1 Ohak, boʻr kabi oq tusga kiruvchi narsa bilan boʻyamoq. *Devorni oqlamoq. Uyni oqlamoq.*

Ishonchni oqlamoq Bildirilgan ishonchga munosib ish qilmoq. *Bu yigit layoqatli ishchan, shubhasiz, ishonchlarini oqlaydi.*

Oʻquvchilarga yuqoridagi izoh keltirilgach, koʻp maʼnolilik bir soʻzning oʻz va koʻchma maʼnoda kelishini tushunadilar va maʼno bogʻliqligini aniqlab, shakldoshlikdan farqlaydilar. Oʻquvchilarga quyidagi qatorlarni davom ettirish topshiriladi:

Oqlamoq... (boʻyamoq, rang bermoq).

Oqlamoq... (burchini oqlamoq, bajarmoq, ado etmoq, oʻrinlatmoq).

Oʻquvchilar nutqini koʻp maʼnoli soʻzlar hisobiga boyitish maqsadida gaplar tuzdiriladi: *Doʻstlarimiz bilan maktab bogʻidagi daraxtlarni oqladik. – Oʻqituvchilarimizning bizga bildirgan ishonchini oqladik.*

Oʻzbek tilida maʼno koʻchishning quyidagi usullari mavjud:

1. Metafora (grekcha: *koʻchirish*) – biror predmet shaklining, belgisining, harakatining oʻxshash tomonini boshqasiga koʻchirishdir: 1) *sh a k l i y* oʻxshashlik – *odam qulogʻi* (oʻz m.) – *qozonning qulogʻi* (*koʻchma m.*). Umuman mavjudotlarning aʼzolari bilan bogʻliq koʻchishlar juda koʻp uchraydi: *stolning oyogʻi*, *arraning tishi*, *varrakning dumi*, *oʻchoq ogʻzi*, *ariqning labi*, *egarning qoshi*, *yogʻochning beli*, *maktabning biqini* (yonboshi), *rubobning qorni*, *koʻchaning boshi*, *kemaning tumshugʻi* va *hokazo*; 2) belgi oʻxshashligi – **yengil** *eshik* (oʻz maʼ.) – **yengil** *taʼzim* (*koʻchma maʼ.*). *Issiq yuz*, *sovuq xabar*, *shirin soʻz*, *achchiq haqiqat*, *oq (qora)* koʻngil, *bemaza gap*, *yorugʻ yuz*, *ochiq koʻngil*; 3) *h a r a k a t* oʻxshashligi – *ipni uzmoq* (oʻz m.) – *qarzni uzmoq* (*koʻchma maʼno*). Oʻzbek tilidagi harakat bildiruvchi deyarli har bir soʻz koʻchma maʼnoga egadir.

2. Metonimiya (grekcha: *qayta nomlash*) – narsa, belgi va harakatlar oʻrtasidagi aloqadorlik asosida maʼno koʻchishidir. Bunda:

1) narsaning nomi shu narsa ichidagi boshqa bir narsaga ko‘chiriladi: *auditoriya* – xona, *auditoriya kuldi* – xona ichidagi odamlar;

2) narsaning nomi shu narsaga asoslangan o‘lchov birligi nomiga ko‘chiriladi: *qop* – narsa, *besht qop shakar* (o‘lchov birligi); 3) o‘lchov birligi nomi shu o‘lchov birligi bilan bog‘liq bo‘lgan narsa nomiga ko‘chiriladi: *to‘qson besh* – o‘lchov birligi, *to‘qson besh choy* – choy navi; 4) muallifning nomi uning asarlariga ko‘chiriladi: *Navoiyni ko‘p mutolaa qilgan*.

3. Sinekdoxa (grekcha: *birga anglash, nazarda tutish*) – shaxs yoki predmet qismi nomini aytish bilan o‘zini tushunish yoki o‘zining nomini aytish bilan uning qismini tushunish asosida ma’no ko‘chishidir: 1) qism nomi butunga ko‘chadi: *Dunyoda o‘zimizdan keyin qoladigan tuyog‘imiz...* (A. Qodiriy). *Tirnoq* (farzand ma’nosida), *ko‘z* (mahalla qora ko‘zlari), *quloq* (Eshitgan quloq nima deydi?), *qo‘l*, *oyoq* (egri qo‘llar, qing‘ir oyoqlar – o‘g‘rilar ma’nosida), *bosh* (Bu bosh nimalarni ko‘rmadi?!), *yostiq* (hayot, umr ma’nosida – Urush ko‘plarning yostig‘ini quritdi), *yurak* (Sher yuraklar jangda chekinmaydilar!), *bo‘yin* (Yo‘g‘on bo‘yinlar bekor yurishibdi), *tish* (Sichqon tish tirjayib javob berdi...), *soch* (Jingalak soch burilib qaradi.), *yuz* (Rapida yuz yoyilib kuldi.) so‘zlari ham sinekdoxaning shu turiga misol bo‘la oladi. 2) butun nomi qismga ko‘chadi: *qo‘l* (*Besh qo‘l barobar emas*), *panja* (*Besh panjanqni og‘zingga tiqma*), *osh* (umuman ovqat ma’nosidan *palov* ma’nosiga ko‘chadi) kabi so‘zlardagi ma’no ko‘chishi sinekdoxaning shu turiga misol bo‘la oladi.

4. Kinoya – so‘zlarning aks ma’noda qo‘llanishidir. Bunday ko‘chishlarni tushuntirish uchun so‘zlar yozuvda qo‘shirnoqqa olinadi: *Qo‘shinning oldingi qismi “dushman” lagerini egallashga ulgurgan edi*.

5. Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishi narsalarning bajaradigan vazifasi o‘xshashligi jihatidan ma’no ko‘chishidir: *o‘q* – yoy o‘qi; *o‘q* – miltiq o‘qi, *tomir* – daraxt ildizi; *tomir* – qo‘l tomiri, *siyoh* – yozuvda qo‘llanadigan qora rangdagi suyuqlik (*siyoh* – fors-tojikcha *qora* deganidir), *siyoh* – yozuvda shu vazifani bajaradigan har qanday rangdagi suyuqlik; *chiroq* – kerosin bilan yonadigan yorug‘lik taratuvchi asbob, *chiroq* – elektr toki yordamida yorug‘lik taratuvchi

xuddi shu vazifani bajaradigan asbob; *ko'mir* – ilgarilari o'tinni ko'mib kuydirish orqali olinadigan yoqilg'i turi, *ko'mir* – yer ostidan qazib olinadigan va xuddi shu vazifani bajaradigan yoqilg'i turi.

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi har xil bo'lgan bir umumiy tushuncha (ma'no) ifodalaydigan so'zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo'shimcha ma'no qirradi, emotsional bo'yog'i, qo'llanilishi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so'zlar bilan ishlash juda muhim. Kishi lug'atida sinonimlar qancha ko'p bo'lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; va 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik⁸.

Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun. Darslikning 5-betida shoir Shuhratning "Salom, maktab" she'rida quyidagi ma'nodosh so'zlar keltirilgan:

Soya-salqin bog'larda,

O'ynab yig'dik kuch-quvvat.

Orif To'xtashning "O'zbekiston" she'rida: "Tuproq'i zar, dur Vatan", "Eng muqaddas, eng buyuk", Tursunboy Adashboevning "Ona tilim" she'rida: "Rang va qiyos olgan tilim", Kavsar Turdievaning "Obod mahalla bo'ylab" she'rida: "Bizning mahalla va ko'y, Har bir xonadon va uy".

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga alohida dars soatlarida sinonim haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o'quvchilar berilgan so'zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2–3-sinflarda esa berilgan so'zning 2–3 sinonimini topib aytishga qaratiladi.

8 Қаранг: Асқарова М., Қосимова М., Жамолхонов М. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б.29.

Darslikning 21-betidagi A.Obidjonning “O‘qituvchining ugitalari” she’ri ustida ishlanganda “*Nondek aziz, nondek uvol*” misrasidagi aziz so‘ziga ma’nodosh so‘zlar topish vazifasi topshiriladi. O‘quvchilar yoki o‘qituvchi: *aziz, qadrdon, qadrli, qimmatli*⁹ so‘zlarini keltirib, matndagi aziz so‘zi o‘rnida ishlatib ko‘riladi: *nondek aziz, nondek qadrdon, nondek qadrli, nondek qimmatli*.

183-betdagi Abdulla Qodiriyning “Chin do‘st” asari o‘tilganda chin do‘st birikmasidagi chin so‘zi *rost, to‘g‘ri, haq, haqqoniy, ochiq*¹⁰ so‘zlari bilan sinonimlashsa-da, ammo hikoyadagi chin so‘zi sodiq, sadoqatli, vafodor¹¹ so‘zlari bilan ma’nodoshlik hosil qiladi.

Shakldosh so‘zlar. Tilimizda tovush (yozuvda harfiy) tomoni bir xil bo‘lib, turlicha ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar mavjud. Bunday so‘zlar omonimlar deb ataladi.

Omonim so‘zlar bir necha predmet va hodisalarning nomini bir xil atab keladi. Talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo atash ma’nosi har xil bo‘lgan “Til birliklarining ifoda planida teng kelish hodisasi”ga mansub so‘zlar omonim so‘zlardir. Omonimlik hodisasi tilimizning muhim jihatlaridan biri bo‘lib, bu hodisa tilda so‘zlarning miqdori haddan ziyod ko‘payib ketmasligiga, tildagi so‘zlarni ixchamlashga yordam beradi.

Omonim so‘zlar boshlang‘ich sinf darsliklarida ham uchraydi. Bunday so‘zlar omonimlar va izohli lug‘atda alohida-alohida so‘z sifatida rim raqami bilan (nuqtasiz) bosh so‘z qilib beriladi. Misol: **Bog‘ I 1** Mevali daraxt, gul, tok va sh.k. band etgan yer maydoni... **Bog‘ II 1** Bog‘laydigan narsa va uning tugilgan (bog‘langan) joyi...

Xususan, shakldoshlik hodisasi uchinchi sinf “O‘qish kitobi” darsligi sahifalarida ham mavjud: *tilim, bosh, bo‘y, bog‘, bog‘lar, sumalak, tosh, oq, soz, oqlamoq, jar* kabi.

Shakldosh so‘zlar boshlang‘ich sinf darsliklarida uchrab tursa ham, bunga ba’zida bee’tibor bo‘lamiz, lekin bu hodisani o‘quvchilarga o‘z o‘rni bilan

⁹ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.16.

¹⁰ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.167.

¹¹ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.178.

singdirib borish juda maqsadlidir. Boshlang'ich ta'limda shakldosh so'zlar bilan ishlash jarayonida ikki holat kuzatiladi: bir matnda shakldosh so'zlarning birga keltirilishi yoxud matnda shakldosh so'zning faqat biri ishlatilishi. Quyida shu tartib asosida ish jarayonini olib borilishini kuzatsak. Buning uchun avvalo bir matndagi bir necha shakldosh so'zlar ustida ishlash yo'llarini tahlil etib o'tamiz.

Dars mobaynida shakldosh so'zlar qatnashgan matndan so'z o'quvchilarga qanday ma'no ifodalashini yetkazish zarur. Bola bu so'zlarning ma'nolarini bilib olish barobarida hayotiy so'zlashuv muloqotning go'zal namunasiga erisha boradi.

Omonim so'zlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar nutqini boyitish maqsadida shakldoshlik ishtirokidagi so'z birikmasi va gaplar ustida ishlash tajribada eng samarali usul sanaladi.

Darslikning 15- betida Tursunboy Adashboevning "Ona tilim" she'ri berilgan:

Buyuk Temur jahon bo'ylab,
O'z dovrug'in solgan *tilim*.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo'lib qolgan *tilim*.
Bobur Mirzo she'rlaridan,
Rang va qiyos olgan *tilim*.
Shunday tildan tonar bo'lsam,
Qiyima-qiyima bo'lsin *tilim*.
Alla bo'lib jaranglagan,
Ona *tilim* – jon-u *dilim*.

TIL I 1 anat. Og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm-maza bilish, og'izga ovqat olish, yalash va sh.k. lar uchun xizmat qiladigan muskulli a'zo. *Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam – dilim.*

TIL II 1 Kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning o'rganish ob'ekti. *Odam tilidan topar, ho'kiz – muguzidan.*

Bu o‘rinda she’rda olti marta ishlatilgan til so‘zi o‘zaro taqqoslanadi: solgan tilim, qolgan tilim, olgan tilim, shunday til, ona tilim, qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.

Yuqoridagi ikkinchi izoh dastlabki tilim so‘zlarini, birinchi izoh qiyma-qiyma bo‘lsin tilim birikmasiga mos keladi.

Shakldoshlikni farqlash uchun “*Ko‘p qand yegan edim, tilim og‘rib qoldi. – Onamning tili juda shirin*” gaplari misol sifatida keltiriladi.

95-betda Kavsar Turdievaning “Dunyoni saqlar bolalar” she’rida: (“Ishongan bog‘lar – bolalar... Umidni bog‘lar bolalar...”) *bog‘lar* shakldosh so‘zi uchraydi.

Bog‘lar so‘zi ot turkumiga mansub bo‘lib, bog‘ asosiga ko‘plik shaklni qo‘shish orqali yasalgan, ikkinchi bog‘lar fe’li esa bog‘ asosiga -la fe’l yasovchini qo‘shishdan yasalgan, -r orqali fe’lning sifat-dosh shakli hosil qilingan. O‘quvchilarga quyidagi misollar orqali shakldosh so‘zlar ma’nosi ochiladi:

Go‘zal bog‘. Bizning mevali katta bog‘imiz bor.

Umid bog‘lamoq. Vatanimiz bizlarga katta umid bog‘lagan.

Darslikning 100-betida Qudrat Hikmatning “Ayamajiz” she’rida: “Tarnovlarda sumalak, shodalari chirillar” misrasida sumalak so‘zi shakldosh so‘z bo‘lib, bu o‘rinda shaklan ikki shakldoshlik keltirilmagan bo‘lmasa ham, bu o‘rindagi sumalak so‘zi nutqiy faol bo‘lmaganligi sababli sharhlashni lozim topdik:

Sumalak I ot. Qorning erib oqib, qayta muzlashi natijasida hosil bo‘ladigan naysimon, cho‘zinchoq muz. O‘ng tomonda shohi pardadek osilib turgan yapaloq, lentasimon sumalaklar ham juda chiroyli edi.

Sumalak II ot. Undirib yanchilgan bug‘doy, un va yog‘ aralashmasidan tayyorlanadigan, servitamin, xushxo‘r holvaytarsimon ovqat (odatda bahor kezlari ayollar o‘rtasida xalfana asosida pishiriladi). *Bu kecha – gulgun kecha, O‘choqda o‘t tonggacha, Kim pishirsa sumalak, Yashasin – ey minggacha*.

O‘quvchilar bu ma’nodosh so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuzish orqali nutqiy hushyorlikni egallaydilar: *osilgan sumalaklar – shirin*

sumalak, marmardek sumalak – sevimli sumalak, Uyimiz tarnovidagi sumalaklar issiqdan erib tushmoqda. – Mahallamizning ayollari sumalak pishirdi.

Erkin Malikovning “Vatanimiz gerbi tug‘ro haqida ertak” (10-bet)da: “Jarchilar jar solibdi” gapidagi jar so‘zining shakldoshini topish o‘quvchilarga topshiriq sifatida topshiriladi. O‘quvchilar so‘zni sharhlagach, quyidagi gaplar asosida izohlanadi: *Jarchining gapini eshitgan xalq maydonga yig‘ildi – Jar yoqasiga borish xavfli.*

Yuqoridagi kabi shakldosh so‘zlar bilan ishlash o‘quvchilarning nutqiy hushyorligini oshirish bilan birga lug‘at kitobi turlari va ular bilan ishlash malakasini hosil qilishning boshlang‘ich ko‘rinishi sanaladi.

Zid ma’noli so‘zlar. Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Zid ma’noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma’noli so‘zlar farqlanadi. Erkin Vohidovning darslikning 182-betda berilgan “Kamtarlik haqida” she’rida manmanlik va kamtarlik quyidagicha o‘zaro zidlanadi: *“Garchi shuncha mag‘rur tursa ham, Piyolaga egilar choynak”.*

Darslikda zid ma’nolilikni barqaror birikmalarda ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. **Iboralarda:** fig‘oni falakka chiqmoq – dardini ichiga yutmoq, ko‘ngli oq – ichi qora, ko‘ziga issiq ko‘rinmoq – ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq kabi. Yoki so‘z va ibora o‘rtasidagi – leksik-frazeologik zid ma’nolilik: xasis – qo‘li ochiq, xafa – og‘zi qulog‘ida kabi. **Maqol va hikmatlarda:** O‘zga yurtning gulidan o‘z yurtningning cho‘li yaxshi (7-bet), Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar. Ko‘p bilgan oz so‘zlar, Oz so‘zlasa ham soz so‘zlar.

2.2. Uchinchi sinf o‘qish darsligi materiallarida o‘zlashma, uslubiy bo‘yoqdor, faol va nafaol so‘zlarning qo‘llanishiga doir

O‘zbek xalqi qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan aloqada bo‘lib kelgan. Bu tilimizda ham aks etgan. O‘zbek tiliga boshqa tillardan kirgan quyidagi so‘zlarni misol qilib keltirish mumkin:

1) arabcha: ma'naviyat, avlod, ajdod, hur, fikr, san'at, soha, imkoniyat, maktab, soha, imkoniyat, sahifa, e'lon, xalq, davlat, ramz, madhiya, qonun, mukammal, dunyo, e'tirof (barcha so'zlar 3-betdagi Dilfuza Kamoljonovanning "Bayramingiz qutlug' bo'lsin" matnidani), muhandis (116-), muharrir (117-), rassom (117-), mahalla (118-), ta'rif (126-), mutolaa, mo'tabar (127-), *kitob, ma'no, harakat, sanoat, muomala, doim, me'da, a'lo, asosiy, ommaviy, oddiy, milliy, abadiy, ammo, biroq, balki, va, lekin, vaholanki* (o'zbek tilidagi arabcha so'zlar ko'proq **ot** va **sifat** turkumiga tegishli bo'lib, ularning belgilari quyidagilardir: ikkita unli yonma-yon keladi: *doim, shoir, muomala, shijoat, shuur, inshoot, murojaat, tabiiy*; ayirish belgisi (') ishtirok etadi: *ma'no, qal'a*; ko'pincha yumshoq **h** tovushi qatnashadi; -iy, -viy qo'shimchalarini olib yasalgan bo'ladi);

2) fors-tojikcha: farzand, vatan, imorat, kasb, obro' (3-), korxlna (117-), donishmand (126-), lojuvard(211-), *barg, anor, nodon, dono, kamtar, tilla, kaptar, dasturxon, dastro'mol, poydevor, poyafzal, darhol, darvoza, xursand, farzand, do'st, go'sht, sust, past, g'isht* (Ko'rinyaptiki, fors-tojikcha so'zlarda *poy, dast, dar* kabi qismlar qatnashyapti, so'zlar oxirida jarangsiz undoshlardan keyin *t*, jaranglidan keyin *d* tovushlari ishtirok etyapti);

3) mo'g'ulcha: *tuman, navkar, yasovul, yasoq*;

4) uyg'urcha: *manti, lag'mon, manpar*;

5) xitoycha: *choy* (xitoy tilida *tsay* deyiladi);

6) ruscha: *stol, stul, ruchka, samolyot, parovoz, paroxod, pulemyot, pero, cho't (scho't)*.

Rus tilidan olingan so'zlar orasida asli kelib chiqishi boshqa tillarga xos so'zlar ham bor: *buxgalter, soldat, tank, shtab* (nemischa), *palto, triko* (fransuzcha), sport (3-), *klub, futbol* (inglizcha), *tomat, limon* (ispancha), avgust, respublika, sentabr, armiya (3-), universitet (118-) – lotincha, gerb (3-) – polyakcha.

Lug'at tarkibidagi so'zlarni kuzatish ularning ba'zilar biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so'zlovchining bildirayotgan tushunchaga o'z bahosini, munosabatini ifodalashini ham ko'rsatadi. Bu munosabat doirasiga g'azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, jirkanish, kinoya kabi xilma-xil

emotsional munosabat ko‘rinishlari kiradi. Xususan, *azamat, o‘ktam, qoyilmaqom, olchoq, razil, satang, sanqi* kabi so‘zlar, ma’lum tushuncha anglatishdan tashqari, so‘zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy yoki salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko‘rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so‘zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi.

Uchinchi sinf o‘qish darsligi matnlari ustida ishlashda ham o‘quvchilarni uslubiy buyoqdor so‘zlar bilan tanishtirish ularning lug‘at boyligini oshirishga ko‘mak beradi. Shu sababli bu sinfda o‘rganiladigan epik asarlardagi buyoqdor so‘zlar bilan ishlash yo‘llariga qisqacha to‘xtalsak.

Darslikdagi¹² nasriy asarlarda ijobiy va salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan quyidagi so‘zlar keltirilgan: “Til qudrati” rivoyatida farishta, ajnabiy, fido qilmoq, donishmand, huzuriga, nizo, ma’qul; “Botir mergan va chaqimchi” ertagida o‘tyurak, mergan, chaqimchi, olampanoh, taqsiri olam, taqsir, erkalik; “Ahillik – ulug‘ baxt” ertagida bolajonlarim, dushman, inoq, naql; “Halollik” ertagida jo‘jabirday, o‘g‘ri, jinoyatchi, yetim-yesir, beva-bechora, murod-u maqsad; “Donishmand yigit” ertagida gunohkor, hasadgo‘y, donishmand, aql, zakovat; “Rustamxon” dostonidan olingan parchada suyukli, rafiqa, ziyoda, kundosh, g‘ashlik, jamoli, ajdaho, begijon, nasib, ot o‘ynatib, haybat, zo‘ravon, Rustambek, qaysar; “Chumoli va tipratikan” masalida badnafs, o‘g‘rilik, halollik, sheryurak, jonsarak; M.Murodovning “Olma” hikoyasida yashanglar, azamatlar, bo‘taloqlarim, Sodiqjon; “Bobur va kabutar” rivoyatida ziyrak, qasr, jonivor, xushxabar, oliy hazrat, topqirlik, bois; “Bebaho boylik” matnida buvajon, qimmatli, oltin (zo‘r), oro kirmoq, bebaho; Nurmat Maqsudiyning “Ilmli ming yashar” hikoyasida Yolqinjon, hayrat, tovlanmoq, sohibkor, usta; O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak” hikoyasida lovillab ko‘rinmoq, qichqirmoq, quvonib ketmoq; Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyasida antiqa, soz bo‘lmoq, boqiy, dang‘illama, zavq; K.Versarinning “Va‘da berdi” hikoyasida sevinch, dadajon, aziz, jilmaymoq; Erkin Malikovning “Toshkent” hikoyasida qora chiroq; “Jaloliddin Manguberdi” matnida g‘alaba qozonmoq, dushman, istak,

12 Umarova M... O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.13.

sodiq, mardlik; Oybekning “Mehnatkash qiz” hikoyasida shinam, mehnatkash, istamoq, ziyrak; “O‘g‘lon” hadisdan parchada qaroqchi, qaroqchiboshi, dovyurak, jasur, makon, og‘alar, hazrat, payg‘ambar, ajoyib; M.Murodovning “Kitob” hikoyasida ulamo, non; “Bola Alisher” matnida mag‘rur, pokiza, mo‘tabar, hurmatli, ehtirom, taqsirim, ulug‘vor; “Cho‘pon yigit Shiroq” afsonasida qulingiz, shahanshoh, ona tuproq, Oydinning “Oltmish gaz arqon” ertagida yov, javdiramoq; Safar Barnoevning “Bobonur” hikoyasida chaqnamoq, bibijon, nevaraginam.

O‘quvchilarning quyi sinfdanoq buyoqdor so‘zlarni his etishga o‘rgatib borish ularning til sezgirliklarini oshiradi, tilning beqiyos boyligini anglab, o‘z ona tillaridan faxr ila foydalanishga yo‘l ochadi.

So‘zlar ishlatilish darajasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Faol so‘zlar kundalik turmushda hammaning nutqida tez-tez qo‘llanadigan so‘zlardir: *non, suv, bugun, kim, besh, yaxshi, sotdi*.

2. Nofaol so‘zlar turli sabablarga ko‘ra kundalik turmushda hammaning nutqida ham tez-tez qo‘llanavermaydigan so‘zlardir.

Bu so‘zlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Atamalar – ilm-fan, texnika, san‘atga xos so‘zlardir. Bular odatda bir ma‘noni bildiradi: *urg‘u, kesim, termometr (179-)*.

2. Shevaga xos so‘zlar – ma‘lum hududdagina ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlardir: xorazmcha *momo (buvi), gashir (sabzi), moyak (tuxum), o‘jak (buzoq), taxya (do‘ppi), secha (chumchuq), taka (yostiqliq), hovva (ha)*; farg‘onacha *shatta (shu yerda), valish (ishkom) paqir (chelak)*; buxorocha *kallapo‘sh (do‘ppi), inak (sigir), nana (ona)*; toshkentcha *ada (ota), doda (bobo)*;

3. Kasb-hunarga oid so‘zlar – ma‘lum kasb-hunar egalari ishlatadigan so‘zlardir. Darslikning 72-73-betdagi Oybekning “Mehnatkash qiz” hikoyasida *ip, mumlamoq, maxsi, shon, loklamoq, chok* kabi maxsido‘zlik hunariga oid, 179-betda tibbiyotga doir *termometr* so‘zlar berilgan.

4. Eskirib qolgan so‘zlar – kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo‘lib qolgan so‘zlardir. Eskirgan so‘zlar ikkita guruhga ajratiladi:

a) tarixiy soʻzlar – hozirda mavjud boʻlmagan narsa-hodisalarning isteʼmoldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda soʻz oʻzi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *mirza*, *mirzaboshi* (183-), *mingboshi*, *ellikboshi*, *kanizak*, *omoch*, *dodhoh*, *mumsik*, *xalfa*, *moʻndi*...

b) arxaik soʻzlar hozirda mavjud boʻlgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir; bunda soʻz eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, u boshqa soʻz bilan ifodalanadigan boʻlib qoladi. Bunday soʻzlar isteʼmoldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi boʻlgan soʻzlardir (qavs ichida hozirgi tildagi sinonimlari berilgan): *ekspress* (*tezyurar*), *oblast* (*viloyat*), *vrach* (*shifokor*), *xirurg* (*jarroh*), *injener* (*muhandis*), *redaktor* (*muharrir*), *redaksiya* (*tahririyat*), *ulus* (*xalq*), *bitik* (*yoʻzuv*)

5. Yangi paydo boʻlgan soʻzlar – fan, texnika va sanʼatning rivojlanishi bilan tilda yangi paydo boʻlgan tushunchalarning nomlarini ifodalovchi soʻzlardir: *xokkeychi*, *limonzor*, *fermer*, *teleminora*, *kompyuter*, *disket*, *sayt*, *fayl*, *chip*, *shou*, *debat*

2.3. Uchinchi sinf “Oʻqish kitobi”da imlosi va izohi qiyin soʻzlarning ifodalanishi

Darslikda oʻquvchilar uchun izohi qiyin soʻzlar ikki xil tartibda keltirilgan: darslikning oxirida lugʻat shaklda va soʻz ishlatilgan betda snoska koʻrinishida.

1.Lugʻatda¹³ jami 100 ta soʻz izohi keltirilgan (-ilova).

2.Snoska koʻrinishida quyidagi soʻzlar izohlangan: *Orif* *Toʻxtashning* “*Oʻzbekiston*” sheʼri uchun: *toʻtiyo* – juda aziz, muqaddas narsa; *zargor* – zar undiradigan, unumdor¹⁴, *Xurshid Davronning* “*Vatan moʻtabardir*” matnida: *mehrigiyo* – mehrni tortuvchi narsa¹⁵, “*Til qudrati*” rivoyatida: *riyoziyot* – matematika; *falakiyot* – astronomiya¹⁶, *Oygul Suyundiqovanning* “*Vatan iftixori*” sheʼrida: *joʻsh uradi* – toʻlib toshadi; *zavq* – ishtiyoq; *tuhfa* – sovgʻa¹⁷, *Oydinning*

¹³ Б.213-217.

¹⁴ Дарслик. Б.8.

¹⁵ Б.13.

¹⁶ Б.13

¹⁷ Б.15-16

“Oltmish gaz arqon” ertagida: o‘ngir – o‘yilgan chuqur joy; sopqon – ichiga tosh solib otiladigan qadimgi oddiy qurol¹⁸, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz” she‘rida: ehson – hadya, in‘om, sovg‘a¹⁹, Erkin Malikovning “Toshkent” matnida: rasta – do‘konlar qatori²⁰, Mirkarim Osimning “Jaloliddin Manguberdi” hikoyasida: Nesa – hozirgi Ashhobod shahri²¹, Safar Barnoevning “Bosh kitob” she‘rida: qomus – mukammal, to‘liq lug‘at²², Bo‘riboy Ahmedovning “Elim deb, yurtim deb yashagan inson” matnida: zaxmdor – jarohatli²³, Mirzo Karimning “Saylda” hikoyasida: **otalig‘i** – tarbiyachisi; zarb – kuch, Bobur – yo‘lbars²⁴, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan “Chin o‘rtoq” matnida: **maxdum** – martabali kishi²⁵ jami o‘n to‘qqizta so‘z izohi keltirilgan. Ma’lumki, yuqori sinf adabiyot darsliklarida qiyin so‘zlar izohi shu tartibda olib boriladi, bu holat o‘quvchilar va muallim uchun ham qulay, chunki so‘zning ma’nosi shu o‘rindayoq izohlanib, kitobning boshqa betlarini izlashga vaqt sarflanmaydi hamda eslatma sifatida mavzu o‘zlashtirilganda ham ko‘rinib turadi.

Darslikda ikki so‘z ikki o‘rinda quyidagicha izohlangan: Mirzo Karimning “Saylda” hikoyasi(140-bet)da: **otalig‘i** – tarbiyachisi; kitob oxiridagi lug‘atda: **Otaliq** – moddiy, madaniy yordam ko‘rsatishni nazarda tutib, tashkilot yoki kishilarni bir-biriga bog‘lash asosidagi ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy burch, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan “Chin o‘rtoq” matni(183-bet)da: **maxdum** – martabali kishi; kitob oxiridagi lug‘atda: **Maxdum** – ulamo va ruhoniylar unvoni va shu unvonga ega bo‘lgan kishi tarzida ifodalangan.

Darslikda yuqorida berilgan o‘zlashtirilishi qiyin so‘zlariga quyidagilarni kiritish bizning taklifimiz: lojuvard (tiniq ko‘k osmon)...

2.4. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi” matnlarining grammatik xususiyatlari

18 B.35.

19 B.55.

20 B.68.

21 B.70.

22 B.91.

23 B.132.

24 B.140-141.

25 B.183.

Uchinchi sinf o'qish darsligining "Ona bitta, Vatan yagona" bo'limidagi Dilfuza Kamoljonovaning "Bayramingiz qutlug' bo'lsin"²⁶ nomli ilmiy-ommobop matni bilan tanishish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqdik, shu xususida tajriba almashsak.

Darsning maqsadi: 1.O'quvchilarga Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami haqida ma'lumot berish.

2.Mustaqillikning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish.

3.O'quvchilarning O'zbekiston taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarini boyitish.

4. O'quvchilarni allomalarimiz kabi mard, jasur, haqsevar, elparvar, vatan uchun qayg'uradigan insonlar qilib tarbiyalash.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommabop asar o'rganiladigan dars.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, aqliy hujum metodi.

Darsning jihozi. Allomalarimizning portreti, allomalar uchun qurilgan maqbara, xotira maydoni, shahidlar qabristoni tasvirlangan rasmlar.

Tashkiliy qism. Sinf to'plangan materiallar asosida bezatiladi. Sinfning markaziga I. A. Karimovning rasmi qo'yiladi.

Sinfning bir qismi Andijon, bir qismi Farg'ona, bir qismi Marg'ilon, bir qismi Qo'qonga ajratiladi. Har birining tepasiga shu nomlar yozib ilib qo'yiladi. Uning ostiga shu shaharlarda yashab ijod etgan allomalarimiz, davlat arboblari, shoir va yozuvchilar, umuman mashhur tarixiy shaxslarning portretlari osiladi, tagiga nomlari, qilgan ishlari yoki gaplari yoziladi, ular uchun qurilgan maqbaralar tasvirlangan rasmlar qo'yiladi.

Darsning borishi. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kuylanadi. Madhiyadan so'ng o'quvchilar xor bo'lib, «Mustaqillikni mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shishga va'da beramiz» deb so'z beradilar.

O'qituvchi o'quvchilar diqqatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning portretiga qaratadi:

– Doskaning yuqori qismiga kimning portreti qo'yilgan?

– I. A. Karimovning xizmatlari haqida nimalar bilasiz?

²⁶ Umarova M... O'qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.3-4.

– Portret tagidagi gapni o‘qing. Bu gap kimlarga qarata aytilgan? “Sog‘lom, ilimli va fidoyi farzandlari bo‘lgan xalq albatta o‘zining kelajagini barpo etadi”. I.A.Karimov.

– Prezidentimiz kutgandek inson bo‘lish uchun nima qilishimiz kerak?

Prezidentimizning belgilab bergan istiqlool yo‘lidan og‘ishmay borishimiz kerak.

Ma‘naviy jasorat – eng buyuk jasoratdir. “Ma‘naviy jasorat” tushunchasini anglamog‘imiz shart. Ma‘naviy jasorat butun bashariyatga xos xususiyat bo‘lib, uni barchamiz egallamog‘imiz kerak. Ma‘naviy jasoratga qodir inson fazilatlarini qanday bo‘lishi kerak? Haqiqiy qahramonlik mezonlari bobolarimiz tomonidan belgilab berilgan. Fidoyilik – buyuk qalb va metin iroda dalili. Fidoyilik – yuksak fazilat sanaladi. Akademik Yahyo G‘ulomov, xalq shoiri Zulfiya, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafutdinovning ibratli hayoti va faoliyati yuzasidan bolalarga hikoya qilinadi. Fidoyi insonlar – xalq faxri va g‘ururi. Ma‘naviy jasorat hissi bilan yashash barchaning burchi. Mustaqillik – xalqimizning eng buyuk ma‘naviy jasorati. Ma‘naviyat – uzluksiz jarayon.

Ma‘naviy yuksalishning davomli yo‘li biz tomonimizdan bosib o‘tiladi. Ma‘naviy yuksalish sari doimiy intilish vatanparvar O‘zbekiston grajdanining yo‘li. Xalq – ulug‘ va sharaflil yo‘ldagi karvondir.

O‘quvchilarni asarni o‘qishga tayyorlash. Sinf bo‘ylab sayohat.

O‘qituvchi: – Bugun biz tarixiy shaharlarga sayohat uyushtiramiz. Siz 4 guruhga ajralib, tarixiy shaharlarga borasiz. Har bir guruh o‘zi borgan shaharda yashagan allomalarni, ular haqidagi fikrlarni, tarixiy obidalarni yaxshilab o‘rganadi. So‘ng u haqda gapirib beradi.

O‘quvchilar «Andijon», «Farg‘ona», «Marg‘ilon», «Qo‘qon» guruhlariga ajratilgan.

Sayohat yuzasidan suhbat.

– “Andijon” guruhi, sayohat davomida nimalarni bilib oldingiz?

– “Farg‘ona” guruhi, sayohat sizda qanday taassurot qoldirdi?

– “Marg‘ilon” guruhi, bu shahar o‘zida qanday sirlarni saqlagan ekan?

–“Qo‘qon” guruhi, bu shahar allomalari, ustalari, tarixiy binolar sizda qanday taassurot qoldirdi?

O‘qituvchi o‘quvchilarning javobini umumlashtiradi va «1991 yil 31 avgust tarix sahifalariga qanday kun bo‘lib kirdi?» savolini beradi.

Asar bilan tanishtirish. O‘qituvchi asarni ifodali o‘qib berishdan oldin «Men asarni o‘qib beraman. Siz diqqat bilan tinglang, so‘ng matn yuzasidan savollar beraman» deb o‘quvchilarni ogohlantiradi.

Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir.

Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobidan.

Mustaqillik – bu avlod-ajdodlarimiz ko‘p yillar osha kutgan erkinlik, hurlik degani. Mustaqillik – bu erkin fikrlash, mustaqil harakat qilishdir...

O‘qituvchi matnni ifodali o‘qib bergach, o‘quvchilardan qiyin so‘zlarni so‘raydi: avlod, ajdod, mukammal, ramz so‘zlarining izohlab, matnni qayta hikoyalab beradi.

O‘quvchilarga avval xor bo‘lib, so‘ngra ichda o‘qitiladi. Tanlab o‘qish o‘tkazilgach, qayta bayon olib boriladi.

Ilmiy-ommabop matnni o‘quvchilarga syujetli asar yoki she’rga o‘xshab qayta hikoyalatish oson emas, shu tufayli matnni qayta hikoyalashda quyidagilarni unutmaslik kerak: ilmiy-ommabop matnni ijodiy hikoyalatish, ya’ni matnga yaqinlashtirib bayon qildirish afzal, matnga avvalo reja tuzib olish kerak va shu reja asosida hikoyalashni olib borish lozim, o‘quvchidan iloji boricha matndagi terminlardan foydalanishga yoxud ularning ma’nodoshlarini ishlatishga imkon berish darkor.

“Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin” matnini o‘qituvchi uchun lisoniy tahlilini quyida keltirsak.

Matnni leksik jihatdan tahlil qilish.

Matnda jami 126 ta so‘z qatnashgan, ayrim so‘zlar 2-3 marta ishlatilganini hisobga olsak, bir martagina ishlatilgan so‘zlar miqdori 100 ta. Mustaqillik so‘zi 5

marta, O'zbekiston, mustaqil, ega, o'z, bo'l so'zlari 3 marta, ramzlari, Respublikasi, bu, avlod, shu, va so'zlari 2 martadan ishlatilgan.

Matndagi o'zlashma so'zlarni aniqlash:

1. Arabcha so'zlar: maktab, avlod, ajdod, hur, fikr, tarix, asl, hol, fan, ta'lim, madaniyat, san'at, sahifa, e'lon, e'tibor, harf, xalq, mamlakat, harakat, davlat, ramz, madhiya, qonun, mukammal.

2. Forscha so'zlar: farzand, vatan, imorat, kasb, yurt.

3. Inglizcha so'zlar: sport.

4. Lotincha so'zlar: avgust, respublika, sentabr, armiya.

5. Polyakcha so'z: gerb.

Matnning morfologik xususiyatlari.

Ot turkumiga mansub so'zlar: sentabr, yil, avgust, avlod, ajdod, armiya, bayram, bayrog'i, vatanimiz, gerbi, davlat, dunyo, yoshlarga, imkoniyatlar, yillar, kalitdir, kelajak, ko'z, qonunchiligiga, kun, madaniyat, madhiyasi, maydoni, mamlakatimizda, mustaqillik, obro', oltin, ramzlari, O'zbekiston, Respublikasining, san'at, sahifalariga, sifat, sohasida, sport, tarixini, ta'lim, o'rni, fan, harakat, harflar, hol, hurlik, chegaralari, eshigini, e'lon, e'tiboriga, yurt.

Sifat turkumiga mansub so'zlar: boy, asl, keng, qutlug', kuchli, mukammal, mustaqil, mustahkam, umumxalq, ega, erkin.

Son turkumiga mansub so'zlar: birinchi, o'ttiz birinchi, bir ming to'qqiz yuz to'qson birinchi.

Olmosh turkumiga mansub so'zlar: bu, butun, siz, u, o'z, shu.

Fe'l turkumiga mansub so'zlar: avaylash, asrash, belgilandi, bergan, berish, boshlab, bo'ldi, bo'lish, bo'lsin, deb, degani, yozildi, yetkazib, kelinmoqda, qilindi, qilishdir, kutgan, nishonlanib, ochib, osha, tan oldi, fikrlash.

Ravish turkumiga mansub so'zlar: qorachig'idek, ko'p, erta.

Ko'makchi turkumiga mansub so'zlar: bilan, tufayli, uchun.

Bog'lovchi turkumiga mansub so'zlar: va, chunki.

Modal so'z: kerak.

Matnning sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish.

Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin – grammatik asoslar miqdoriga ko‘ra sodda gap, yig‘iq sodda gap, ega va kesimdan tuzilgan, ifoda maqsadiga ko‘ra buyruq gap.

Mustaqillik – bu avlod-ajdodlarimiz ko‘p yillar osha kutgan erkinlik, hurlik degani – sodda gap, yoyiq sodda gap, kesim uyushgan, darak gap.

Mustaqillik – bu erkin fikrlash, mustaqil harakat qilishdir – sodda gap, yoyiq sodda gap, kesim uyushgan, darak gap, tire ega ot bilan, kesim bosh kelishikdagi harakat nomi bilan ifodalangani uchun ishlatilgan.

Boy tarixini ko‘z qorachig‘idek asrash, avaylash, kelajak avlodlarga asl holda yetkazib berishdir – sodda gap, yoyiq sodda gap, ega uyushgan, darak gap, avaylash so‘zidan keyin vergul noto‘g‘ri ishlatilgan.

Ertaning egalari – Siz yoshlarga fan, ta‘lim, madaniyat, sport va san‘at sohasida imkoniyatlar eshigini ochib bergan oltin kalitdir – sodda gap, yoyiq sodda gap, egasi tushirilgan bir bosh bo‘lakli gap, to‘ldiruvchi uyushgan, darak gap, tire ajratilgan to‘ldiruvchini aniqlash uchun ishlatilgan.

1991 yilning 31 avgusti Vatanimiz tarixi sahifalariga oltin harflar bilan yozildi. Chunki shu kuni O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e‘lon qilindi – qo‘shma gap, hol ergash gapli qo‘shma gap, sabab ergash gap, darak gap.

1991 yil 1 sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi – sodda gap, yoyiq sodda gap, darak gap.

Shu kundan boshlab 1 sentabr umumxalq bayrami sifatida butun mamlakatimizda keng nishonlanib kelinmoqda – sodda gap, yoyiq sodda gap, darak gap.

Yurt mustaqil bo‘lishi uchun o‘zining davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, maydoni, mustahkam chegaralari, armiyasi bo‘lishi kerak – sodda gap, yoyiq sodda gap, ega uyushgan, darak gap, tire gapning uyushiq bo‘laklarini ajratib ko‘rsatish uchun ishlatilgan.

Mustaqil O‘zbekiston o‘z davlat ramzlari, kuchli armiyasi va mukammal qonunchiligiga ega davlatdir – sodda gap, yoyiq sodda gap, to‘ldiruvchi uyushgan, darak gap.

Mustaqillik tufayli Vatanimizni dunyo tan oldi, u o'z o'rnini, obro'-e'tiboriga ega bo'ldi – qo'shma gap, bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap, darak gap.

Yuqoridagi ma'lumot-tavsiyalar albatta o'qituvchi uchun bo'lib, undan yetarli xulosa chiqargan o'qituvchi o'quvchiga sodda tushunarli shaklda tahlilni o'rgatadi, aytadilar-ku, qancha ko'p bilsang, fikring tiniqlashib, xulosani lo'nda va ishonchli chiqarasan, deb.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa:

1. Uchinchi sinf darsligining lug'at tarkibi o'quvchilar yoshiga mos tarzda rang-barang bo'lib, shu kun o'qitish tizimi talablariga javob beradi.

2. Darslikda ishlatilgan ko'p ma'noli so'zlar uchinchisi sinf o'quvchilari saviyasiga mos tarzda, DTS talablariga xos holda keltirilgan, bunday so'zlar ustida ishlash barobarida o'quvchilarni "O'zbek tilining izohli lug'ati" bilan ishlashni o'rgatish shu kunning eng muhim talabi deb e'tirof etamiz.

3. Darslikda ishlatilgan leksemalarning shakl va munosabatiga ko'ra turlarini tahlil etib, ular bilan o'quvchilarni tanishtirish zamonamizning talabi deb belgiladik, chunki o'quvchilarning lug'at boyligini oshiruvchi bu vositalar doimo o'qitishda diqqat-e'tiborda bo'lib kelgan. O'quvchilarni so'zning shakl va ma'no xususiyatlarini o'rgatishda nazariy tanishtirish uchun o'qituvchining ish stolida lug'atlar bo'lishi shart.

4. Darslikdagi tarixiy so'zlarni aniqlab olish va ularni eskirganlik hamda yangilik xususiyatlariga ko'ra guruhlab o'quvchilar bilan tanishtirish diaxronik ishlarni rivojlantirish vositasi bo'lib kelgan.

5. Darslikdagi uslubiy bo'yoqdor va bo'yoqsiz qatlam so'zlari yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilib va ularni o'qitish tizimiga kiritish o'quvchilarning nutqiy hushyorliklarini ta'minlashga xizmat qiladi, deb ishonch bildiramiz.

6. Darslikda o'zlashma leksemalarning berilishi, ular bilan o'quvchilarni tanishtirish, nutqiy boyliklarini ta'minlash barobarida o'z qatlam so'zlariga mehrini oshirish nazarda tutilgan.

7. Darslikda matnni ta'sirchanligini ta'minlovchi grammatik usullarning ifodalanishi, ular bilan olib boriladigan amaliy ishlar o'quvchilarning til boyliklarini oshirishga, adabiy asarni chuqurroq his etishga yordam beradi.

8. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda boshlang'ich ta'limda yuritiladigan lug'at daftarining o'rni ta'lim tizimida eng muhim vositalardan biri degan xulosaga keldik.

III BOB

UCHINCHI SINIF “O‘QISH KITABI”DAGI ASARLARNI O‘QITISH METODIKASI

3.1. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi asarlarni o‘qitishda o‘quvchilar lug‘atini boyitish metodikasi

Mahmud Murodovning “Olma”, Hakim Nazirning “Bebaho boylik”, Nurmat Mahsudiyning “Ilmli ming yashar”, O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak”, Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyalari nasriy turga xos bo‘lib, bolalar adabiyotining go‘zal namunalaridan hisoblanadi.

Quyida nasriy turga mansub asarlardan hikoya matni ustida ishlash metodikasini ko‘rib o‘tsak.

Nasriy asarlar ko‘lamdorligi tufayli syujeti, kompozitsion tuzilishi, adabiy qahramonlar tizimi bo‘yicha qat’iy reja asosida o‘rganishni taqozo etadi. Asar tahlilida badiiy matn uning poetik xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, sharhli yoki ijodiy o‘qish, keng qamrovli, siyosiy, muammoli, Bitiruv malakaviy ish, noan’anaviy usullardan foydalanganda ham asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, asar syujeti, kompozitsiyasi, bosh qahramonlar timsolini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan turli tipdagi tahlillar matn ustida ishlash asosida olib borilsa, o‘quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoya – epik tur janrlaridan biri. Kichik hajmli bu badiiy asar turi kishi hayotidagi ma’lum bir voqeani tasvirlaydi va shu voqeaga qadar bo‘lgan yoki undan keyin ro‘y bergan voqealarni batafsil bayon etmaydi²⁷.

Demak, hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

«Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir»²⁸.

²⁷ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.274.

²⁸ Султон И. Адабиёт назарияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 45.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish

va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda «Jaloliddin Manguberdi» hikoyasida Chingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati misolida ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

«Jaloliddin Manguberdi» hikoyasi qahramonlarini, ularning xatti-harakatlarini o'rganish va tahlil qilishni matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. Chingizxonning hiyla ishlatgan o'rnini matndan topish. Uning o'quvchilarda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash.
2. Jaloliddin Manguberdining Eron va Afg'onistonda mo'g'ullarga qarshi kurashib, erishgan g'alabasi tasvirlangan o'rinni topib o'qish.
3. Lashkarboshilarning o'lja taqsimlashi oqibatida nima yuz berganini aniqlash. Bu o'rinni matndan topish.
4. Jaloliddin Manguberdining jasorati yana qaysi o'rinda ko'ringanini aniqlash.
5. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga nima uchun tan berganini aytish.

Shundan so'ng o'quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqida ongli fikr yuritadilar. Chingizxon bilan Jaloliddin Manguberdining xatti-harakatlarini taqqoslab, farqlaydilar.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).
3. Lug'at ustida ishlash.
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).

5. Hikoyani qayta o‘qish (qismlarga bo‘lib, rollarga bo‘lib o‘quvchilarga o‘qitish).
6. Hikoyaning har bir bo‘limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Reja asosida qayta hikoyalash.
8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar.
9. Hikoyani ifodali o‘qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).
10. Hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoyalash²⁹.

3.2. “O‘qish kitobi”dagi nasriy asarlarni o‘qitishda lug‘at ustida ishlash yo‘llari

Mahmud Murodovning “Olma” hikoyasi³⁰ni o‘quvchilarga tanishtirish yo‘llari bilan o‘rtoqlashsak.

Kuz. Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o‘quvchilari olmazorga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Quadrat ota toklarni chilpib yurgan ekan. “Kelinglar” – deb bolalarni xursand kutib oldi. Bolalar odob bilan otaga salom berishdi.

– Yashanglar, azamatlar, yashanglar. Olmalarga qaranglar, tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilib yotibdi...

...Bolalar birgalashib Kamolni ko‘rib chiqishdi. Kamolning buvisi ham, onasi ham bolalarning bir-biriga g‘amxo‘rligidan xursand bo‘lishdi. Kamol esa o‘zini tuzalib qolganday his qildi.

Matn o‘quvchilarga tanishtirilgach quyidagi ishlar olib boriladi:

Savol: “Hikoyadan nimalarni bilib oldingiz?”

Topshiriq: 1. “Hikoyaning ikkinchi qismini ovoz chiqarmay o‘qing va so‘zlab bering”.

2. Hikoya qismlariga mos sarlavha toping:

1) O‘quvchilar hasharga borishdi.

²⁹ Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B.115.

³⁰ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.52-54.

- 2) Bolalar bir-birlariga do'st.
3. Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.

Reja:

1. O'quvchilar bog'ga meva terishga chiqishdi.
2. Qudrat ota bolalarga ish ko'rsatdi.
3. Kamol hasharga kelmadi.
4. Bolalar topshiriqni uddalashdi.
5. Kamol do'stlaridan xursand bo'ldi.

Uyga vazifa. Matndagi rasmdan foydalanib insho yozing.

Abdusodiq Irisovning "Qo'shterak" hikoyasi³¹ ham bo'limdagi eng go'zal hikoya namunasi sanaladi, unda tabiatni sevish, daraxt o'tqazib bog' yaratishning foydali amallari tasvirlanadi.

Boqi G'azalkentda turadi. G'azalkent bilan Toshkent orasida chiroyli baland bir tepalik bor. Tepalikning havosi toza va g'ir-g'ir shabada esar edi. Chunki uning etagida suv oqardi.

Bir kuni yo'lovchi bir chol:

– Shu yerga bir tup daraxt ekilganida juda antiqa joy bo'lar ekan-da! – deb qoldi. Boshqa odamlar ham unga qo'shilib: "Ha, soz bo'lardi", - deyishdi.

Kuz keldi. Boqi o'sha cholning gapini eslab qoldi. Ikki tup terak niholini olib, tepalikka borib, o'tqazib keldi. Lekin buni hech kim ko'rmadi. Teraklar tezda qad ko'tardi. Oradan uch-to'rt yil o'tgach, bu tepalik "Qo'shterak" deb yuritiladigan bo'ldi.

... Boqi bo'lsa teraklariga zavq bilan boqar, teraklar bilan boshi ham ko'kka yetayotgandek tuyulardi. Kishi bilmas yaxshi ish qilishning ham zavqi bor. Buni Boqiga o'xshaganlar biladi.

1. "Qo'shterak" nomi qanday yuzaga keldi?
2. Nima uchun Boqi teraklarni o'zi ekkanligini aytmadi?
3. Siz Boqiga qanday baho berasiz?

³¹ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.66-67.

Topshiriq. 1. Matndan o‘zingizga yoqqan qismini so‘zlang.

2. “Qo‘shterak”ning obod bo‘lishi haqida gapirib bering.

Hikoyaning har bir qismiga sarlavha qo‘ying:

1) Tepalik.

2) Qo‘shterak.

Matnni hikoyalash uchun ushbu rejani tavsiya etamiz.

Reja:

1. Tepalikda hech narsa o‘smas edi.

2. Mo‘ysafidning taklifi.

3. Boqi tepalikka terak ekdi.

4. Teraklar barq urib o‘sdi.

5. Hamma bog‘bonga rahmat aytmoqda.

6. Terakni kim ekkan?

O‘quvchilar katta hajmli hikoyani reja asosida hech qinalmay, uzviylikni buzmay qayta bayon eadilar. Bolalarning sezgirlikni oshirish uchun yoyiq rejani yig‘iq rejaga aylantirish ham yaxshi samara beradi.

Reja:

1. Tepalik.

2. Mo‘ysafid.

3. Terak ekildi.

4. Terak yashnadi.

5. Tashakkur.

6. Yaxshidan bog‘.

3.3. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi nasriy asarlarni o‘qitishda o‘quvchilar nutqini boyitish usullari

Zahriddin Muhammad Bobur hayotiga oid “Asotirlar va rivoyatlar”dan olingan “Bobur va kabutar” matni³² berilgan. Rivoyatning mazmuni quyidagicha: Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola bo‘lib o‘sibdi. Bir kuni uning otasi Umarshayx saroy a‘yonlari bilan qasrda o‘ltirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib

³² Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.60-61.

ayvon peshtoqiga qo‘nibdi-da: “G‘ulu-g‘ulu-g‘u-g‘u” qilaveribdi. Umarshayx a‘yonlaridan: “Kabutar ne deydur?” – deb so‘rab qolibdi. A‘yonlar anchadan beri urush ko‘rmay, qilichlari qonsirab qolgan ekan. Ular: “Oliy hazrat, kabutar qilichlarni qindan sug‘urmoq kerak”, – deydur deb javob berishibdi.

... Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a‘yonlarga qarab: “Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir,” – debdi.

Matn o‘qituvchining ifodali hikoyasi va uch abzasni ifodali o‘qishi bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Matn o‘qib chiqilgach, matndagi qiyin so‘zlar izohi beriladi. Qiyin so‘zlarni o‘qituvchi o‘quvchilardan so‘ragini ma‘qul. O‘quvchilar bilganlaricha o‘z javoblarini bersalar, o‘qituvchi albatta, to‘ldirishi lozim. Matndagi saroy a‘yonlari, ayvon peshtoqi, kamina so‘zlari izohlanadi.

Shundan so‘ng quyidagicha savol va javob o‘tkaziladi:

1. Umarshayx a‘yonlardan nimani so‘radi?
2. A‘yonlar nima deb javob berishdi?
3. Boburning ziyrakligini nimada ko‘rasiz? Matndan shu o‘rinni toping.
4. “... qilichlar qonsirab qolgan” iborasini qanday tushunasiz?

Savol va javob o‘tkazilgach, asar tilida uchragan eski turkiy til namunalarini keltirib, o‘quvchilarga sharhlatiladi: o‘ltirgan ekan, ne deydur, chaqiribdur, keltiribdur, bois nedur.

Rivoyat matni shundan so‘ng tanlab o‘qitiladi. Chunki sinfdagi barcha o‘quvchilar matnni hali ifodali o‘qishga tayyor emas. Uch-to‘rt o‘quvchiga asar tanlab o‘qitilgach, matnga sarlavha toptiriladi. O‘quvchilar o‘zlarining “Ziyrak bola”, “Dono javob”, “Aql – inson bezagi” kabi sarlavhalarini taklif etadilar. Eng ma‘qul sarlavhani albatta, o‘qituvchi tanlagani maqsadga muvofiqdir.

Sarlavha topilgach, bolalarga musobaqa asosida ifodali o‘qishni tashkillash kerak. Bolalar bu ish turini juda xursandlik bilan kutib oladilar, negaki bu yoshdagi bolalarda ochiq maydonda jang – musobaqa olib borish juda yoqadi-da.

Shundan so‘ng bolalar bilimini tartibga solish maqsadida reja tuzdirib ko‘rish kerak.

Reja:

1. Kabutarning xushxabar olib kelishi.
2. Kabutar tashrifiga a'yonlarning munosabati.
3. Boburning dono fikri.
4. Hamma lol-u xayron.

O'quvchilar yuqordagi reja asosida asarni qayta bayon qiladilar. Qayta bayonda o'quvchilar hikoyani tartib bilan olib boradilar.

Yuqoridagi yoyiq rejani atov gap sharlidagi yig'iq rejaga aylantirib borish o'quvchilarning hikoyalashlarida yangi reja turi bilan ishlashga o'rgatadi.

Reja:

1. Xushxabar.
2. A'yonlar fikri.
3. Ziyraklik.
4. Xayronlik.

Boshlang'ich ta'limda bunday yig'iq reja doimo yoyiq reja asosida tuzdiriladi. O'quvchilar yuqori sinflarga o'tganlari sayin rejaning yig'iq turini ko'proq ishlatishga kirishadilar.

Darslikning 51-52- betlarida "Oltin kuz" nomli ilmiy-ommabop matni berilgan.

Kuz... Ona diyorimizga oltin kuz sepini yoygan. Kechalari salqin. Ertalab shudring tusha boshlaydi. Tog'lardagi qoyalarda qirov. Paxta dalalarining ko'rinishi o'zgacha. Lo'pi-lo'ppi ochilgan paxtalar quyosh nurida toblanadi. Bu manzara kuz kelganidan darak beradi.

Kuzning birinchi oyida nok, olma, shaftoli, uzum, anjir va anorlar g'arq pishadi. Sabzavotlar, qovun-tarvuz serob bo'ladi. Yig'im-terim ishlari boshlanadi.

Tuyoqli jonivorlarning hayotida ham o'zgarish bo'ladi. Ular ko'k o'tlar bilan birga don ozuqasi, yovvoyi urug'lar, mevalarni iste'mol qiladilar. Bu ularning qishga ko'p kuch to'plab olishiga yordam beradi.

Kuz kelib, havo soviy boshlaganda, tunalar, chug'urchuqlar, qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, ko'kqarg'alar yurtimizdan issiq tomonlarga uchib ketadi.

1. Maqolani o'qishga tayyorgarlik ishlari.

O‘qituvchi mavzuni e’lon qilib, sana va mavzuni o‘quvchilar daftariga yozdiradi. O‘quvchilarga kuz tabiatining go‘zalligi qisqa hikoyalanadi. Ob-havo, tabiatdagi, qushlar va hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar bayon etiladi. O‘quvchilar kuzdagi o‘zgarishlarni bahor va yozdagi tabiat o‘zgarishlariga taqqoslaydilar. O‘zlarining mahalla va qishlog‘idagi o‘zgarishlarni shaxsiy qarashlari asosida hikochlaydilar.

2. Lug‘at ishi.

Matndagi “kuz sepi”, “don ozuqasi” so‘zlari matnni o‘qishdan avval izohlansa, matn o‘qilgach o‘quvchilardan ma’nosini tushunishga qiynalgan so‘zlari so‘rab izohlanadi.

3. Maqolani dastlabki o‘qish.

“Oltin kuz” matnining birinchi abzasi o‘qituvchi tomonidan, 2-4-qismlari o‘quvchilar tomonidan tanlab o‘qitiladi.

4. Maqola mazmuni yuzasidan suhbat.

Matnning mazmunini o‘qituvchi dastlab matnga yaqinlashtirib hikoya etadi, so‘ngra quyidagicha savol va javob uyushtiriladi:

1. Matnda kuzning birinchi oyi haqida nima deyilgan?
2. Kuzda tuyoqli jonivorlar hayotida qanday o‘zgarish bo‘ladi?
3. Qaysi qushlar issiq tomonlarga uchib ketadi?
4. Matndan kuz manzarasiga oid parchani toping va o‘qing.

“Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limidan matn mazmuniga mos topishmoq tanlang va ayting.

Matn mazmuniga mos dalillarni quyidagicha keltirish ancha maqsadli sanaladi.

Turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta boshlanadi. Bordi-yu, turnalar kuzda baland uchsa, kuz uzoq davom etadi.

5. Maqola rejasini tuzish.

Reja:

1. O‘lkamizga oltin kuz kirib keldi.
2. Meva va sabzavotlar g‘arq pishdi.

3. Hayvonlar qishga tayyorgarlik ko‘rishmoqda.

4. Issiqsevar qushlar o‘lkamizdan uchib ketdi.

Ilmiy-ommabop matnlarni o‘quvchilar tomonidan qayta hikoyalashlari uchun eng maqbul vosita reja asosida hikoyalashdir. Bunday matnlarni o‘quvchilardan to‘liq hikoyalash talab etilmagani uchun reja asosida hikoyalash ishning tartibli, ketma-ket borishini ta’minlaydi.

Darslikda Malik Murodovning “Mehrjon sayli” matni³³ ham ilmiy-ommabop maqola sanaladi.

Mehrjon bilan Navro‘z o‘zbeklarning eng go‘zal, eng tarovatli bayram sayllaridan hisoblanadi. Chunki ular xalqchil, hayotiy an‘analardir.

Navro‘z bahor kirishi, qishning ayozli kunlaridan uzil-kesil qutulib, yangi kun, yangicha hayotning boshlanishini nishonlash bayramidir.

Mehrjon esa hosil ko‘tarib, qishga tayyorgarlik ko‘rishdir, to‘kin-sochinlikka shukronalik, hayotga muhabbat ramzidir.

Xalq kuzgi bayram saylining nomini “Mehrjon” deb bilib qo‘ygan. U dehqon yil bo‘yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko‘rayotgan paytda – 25-sentabrga o‘tar kechasi nishonlanadi.

Abu Rayhon Beruniy so‘zi bilan aytganda, Quyosh va Oy falakning ikki ko‘zi bo‘lganidek, Navro‘z va Mehrjonham zaminning ikki ko‘zidir.

1.O‘zbeklarning qanday an‘analarini bilasiz?

2.Mehrjon sayli qaysi paytda nishonlanadi?

Topshiriq. Navro‘z bilan Mehrjon saylining farqini ayting.

Matnni qayta hikoyalashga quyidagi rejani tavsiya etamiz.

Reja:

1. Navro‘z – bahor bayrami.

2. Mehrjon shukronalik belgisi.

3. Beruniy Mehrjon haqida.

³³ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.56.

Matn tahlilidan so'ng quyidagi maqol va topishmoqlar asosida o'quvchilarning bilimini kengaytirish hamda nutqini o'stirish mumkin.

Maqol. Mehnating – zeb-u ziynating.

Mehnat qilgan xor bo'lmas.

Topishmoq. Beqasamdan to'ni bor,

Ichi qizil lolazor. (Tarvuz).

Uzoqdan qarasam, yaltir-yultir,

Yoniga borsam, qulf-u zanjir. (Anor).

Dum-dumaloq cho'tir tosh,

Ichi to'la moyli osh. (Yong'oq)

3.4. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi she’riy asarlarni o‘qitishda she’r tuzilishi yuzasidan ma’lumot berish uslubiyoti

Ma'lumki, 1937–1953 yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizga tasavvur etish uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya³⁴.

Uchinchi sinf o'qish darsligida Muhammad Yusufning o'zbekning qatag'on tufayli orttirgan qalb yarasini ifodalovchi “Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor” nomli she'ri “9 may – Xotira va qadrlash” bo'limida berilgan³⁵. She'r har bir o'zbekning yurak sadosi bo'lib yangraganligi bois o'quvchilarga ma'naviy ta'siri juda katta. She'r juda uzoq bo'lmagan tariximizning eng jirkanch, eng qora kunlaridan dog' bo'lib, o'zbekning Qodiriylarini halok etib, o'zligini unutishga yo'g'rilgan kunlarning mahzun yodgorligidir.

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,

Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.

O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,

Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,

³⁴ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.97-98.

³⁵ Умарова М. Ўқиш китоби. 3-синф. Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.202.

Yulduzni yig‘latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termilgan Cho‘lponlaring bor.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,
Onasan-ku, og‘ir olma so‘zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Qurboning bo‘layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring – mening fig‘onim,
O‘tmishingni o‘ylab o‘rtanar jonim,
Aytsam ado bo‘lmas armonlaring bor.

...she‘r to‘qimasida ko‘plab g‘oyaviy-badiiy unsurlar bo‘ladi. Mavzu, g‘oya, naqorat, band, ritm, vazn, qofiya, intonatsiya, pauza, urg‘u, poetik figuralar, fonetik unsurlar, badiiy san‘atlar, obraz, syujet, kompozitsiya, konflikt, badiiy til unsurlari va boshqalarning muayyan bir tizimga uyushuvidan she‘r paydo bo‘ladi³⁶.

She‘rning lingvistik tahliliga yuqoridagi unsurlar asosida kirishsak. She‘rning mavzusi qatag‘onga uchragan xalqning yarador qalb nolasi, istiqlol tufayli qaddini tiklagan qahramonning o‘tmishini unutmay, nurli kelajakka olg‘a qadam tashlab mardona borishi asar g‘oyasini belgilaydi. Bor so‘zi takror sifatida 8 marta qofiyadan so‘ng takrorlangan, she‘rning 3-misrasi 15-misrada *og‘riydi* so‘zi o‘rnida *o‘rtanar* so‘zni, 1-misra esa 16-misrada *yurtim* so‘zini *aytsam* so‘zi bilan almashtirib misra takror bo‘lib kelgan.

She‘r barmoq vaznida bitilgan, 4 banddan tuzilgan, band – she‘rning alohida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan yirik ritmik bo‘lagidir³⁷, har band 4 misradan iborat, umumiy 16 misrani tashkil qilgan. Misra – she‘rning har bir satri, yo‘li³⁸.

³⁶ Бобоев Т. Шеър или таълими. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.16.

³⁷ Бобоев Т. Шеър или таълими. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.44.

³⁸ Ҳомидий Ҳ. Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент: ўқитувчи, 1967. – Б.115.

Ritm – she’r misralardagi bir-biriga teng nutq bo‘laklarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo‘ladigan ohangdoshlik³⁹ bo‘lib, she’rning 11 hijoli, 2 turoqli, so‘z va misra takroriyiligi ohangdoshlikni ta’min etgan.

Bo‘g‘in – bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush yoxud tovushlar birikmasi, so‘zning mustaqil talaffuz qilinishi mumkin bo‘lgan bo‘lagi⁴⁰ she’r ilmida hijo atamasi bilan ishlatiladi. She’rning har bir misrasi 11 hijodan tuzilgan: Yur-tim, a-do bo‘l-mas ar-mon-lar-ing bor.

Barmoq tizimida bo‘g‘inlarning muayyan guruhlariga ajratilishi oqibatida paydo bo‘ladigan ritmik bo‘lak turoq deb yuritiladi⁴¹, she’r ikki turoqli (6+5): Tosh-lar-ni yig‘-lat-gan/ dos-ton-lar-ing bor.

She’rning 1-, 2-bandi a-a-b-a, 3-bandi d-d-d-a, 4-bandi ye-ye-ye-a shaklida qofiya(misraning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar⁴²)langan: armonlaring – dostonlaring – o‘g‘lonlaring – osmonlaring – dostonlaring – Cho‘lponlaring – Usmonlaring – armonlaring, yuzimni – so‘zimni – ko‘zini, onajonim – fig‘onim – jonim. Armonlaring – dostonlaring... so‘zlarining qofiyasini o‘zak oxiridagi “n”, yuzimni – so‘zimni – ko‘zini so‘zlarida “z”, onajonim – fig‘onim – jonim so‘zlarida “n” – raviy (qofiyadosh so‘zlarni bog‘lovchi unsur)dir.

She’riy asarda raviydan so‘ng ohangdoshlikni oshiruvchi vasl, xuruj, mazid, noyira kabi elementlar keladi, bu unsur turlari qanchalik ko‘p qatnashsa, she’rning musiqiyiligi oshadi. Armonlaring – dostonlaring qofiyasida “n” – raviy, “l” – vasl, “r” – xuruj, “ng” – mazid, noyira mavjud emas. Yuzimni – so‘zimni – ko‘zini qofiyalarida “z” raviy, “m” vasl, “n” xuruj, ko‘zini so‘zida “m” tovushi yo‘qligi sababli vasl mavjud emas, lekin “n” xuruj sanalaveradi. Onajonim – fig‘onim qofiyasida “n” raviy (onajonim so‘zida raviy to‘g‘ri belgilanmagan, onajon emas, ona asos bo‘ladi, shu tufayli bu qofiyalanish och qofiya sanaladi), “m” vasl bo‘lib, xuruj, mazid, noyira mavjud emas.

She’rda quyidagi badiiy san’atlarni aniqladik.

³⁹ Бобоев Т. – Б.21.

⁴⁰ Бобоев Т. – Б.23.

⁴¹ Бобоев Т. – Б.23

⁴² Хомидий Х. – Б.267.

She'rdagi sobiq sho'rolar davri qatag'oni va uning qurbonlari Cho'lpon, Usmon Nosirlarning eslanishi talmih san'ati bo'lib, she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, shaxslar, afsonalar, badiiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmog'i⁴³ tushuniladi. Cho'lpon, Usmon Nosirni eslash barobarida 20-asr boshlarida ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan millatimiz gullari, jadid ma'rifatparvarlarning buyuk ishlari va ularning ayanchli taqdiri yodimizga keladi. El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarini to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi. Ana shu insoniy burchimizni ado etish maqsadida 2000 yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatag'on yillarida xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib, nom-nishonsiz ko'mib tashlangan, necha yillar davomida qarovsiz qolib kelgan Bo'zsuv kanali sohilidagi Alvastiko'prik deb nom olgan jarlik o'rnida Shahidlar xotirasi xiyoboni va keyinchalik shu nomda muzey va jamg'arma tashkil qilindi. 2001 yildan e'tiboran 31 avtust yurtimizda Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi⁴⁴.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi». She'rdagi toshlarni yig'latgan metonimiyasi qo'llangan, bu bag'ritosh kishilar ham yig'laganini bildiradi.

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi, she'rdagi ko'ngildek keng, jayrondek termilgan kabi metaforalar ishlatilgan.

⁴³ Ҳоҷиҳаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.41.

⁴⁴ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.98-99.

Tashxis shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash bo‘lib, shoir yulduzni yig‘latgan jonlantirishini ishlatgan.

Ma‘lumki, narsa-predmedlarni chiroyli belgilarini tasvirlash sifatlash san‘ati sanaladi, she‘rda qaro ko‘zini sifatlashi keltirilgan, bu so‘z badiiy uslubga mansub, adabiy me‘yorda qora shaklida qo‘llanadi.

She‘rning qisqa tahlilida o‘z qarashlarimizni lisoniy tahlil asosida olib bordik, bu qarashlarimiz shoir qarashlari oldida ancha g‘alizligini sezamiz. M.Yusuf xalqimizning topqir, o‘z so‘ziga ega jaydari shoiri edi. Mana, xotira kunlarida uning katta she‘rini tahlil etish barobarida, shoir bizdan uzoqlashmaganini, dardimiz hamohangligini sezyapmiz. Illoh, o‘zbekning buyuk shoirni Olloh rahmatiga olgan bo‘lsin. Shoirimiz doimo qalb to‘rimizda!

3.5. Uchinchi sinf “O‘qish kitobi”dagi she‘riy asarlarni o‘qitishda dastlabki she‘r san‘atlari ustida ishlash metodikasi

Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda”, Yo‘ldosh Sulaymonning “Kuz”, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she‘rlari lirik turga mansub bo‘lib, bolalar adabiyotining namunalari bor. She‘r-ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi⁴⁵.

Lirik she‘rni o‘qish mobaynida kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni she‘riy asarlar va lirik she‘rlar o‘qitiladi.

She‘riy hikoya, she‘riy ertaklarda syujet, ya‘ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she‘r «biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi». Lirik

⁴⁵ Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.247.

she'ning xususiyati «kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi»⁴⁶.

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'ning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi.

Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab etilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

2-sinfda Tolib Yo'ldoshning "Kuz kelganda" she'ri⁴⁷ni o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, kuz fasli oltin kabi tovlanadi, uning har kuni sukutda, kunlar keskin emas, bir maromda bo'ladi. Tabiat o'zgarishlari asta-sekinlik bilan ro'y beradi. Kuzning xosiyati odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Kuzda bolalar bog'larda mevalarni yig'ish, qishga zamin tayyorlashda bevosita ota-onalariga ko'maklashadilar. Bolalarning kuzgi o'yinlarini o'ynashadi.

She'rini o'rganish jarayonida tabiat bag'riga sayohat uyushtirish ayni muddao bo'ladi. Bolalar yozgi tabiat manzarasiga kuz manzarasini taqqoslaydilar. Yoz va kuzning farqli va o'xshash xususiyatlarini farqlab oladilar va dars davomida fikrlarini bildiradilar.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech

⁴⁶ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.93.

⁴⁷ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.52.

qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, «Kuz kelganda» she'ri o'rganilganda «yoz ne'mati», «ko'zimiz to'q», «dimog'lar chog'», «xush bo'yiga», «xumda shinni» so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin: «She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?», «Yoz ne'matlari nimalar?», «She'rda ko'zimiz to'q deb nima ifoda qilinyapti?». O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning kuz fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She'riy nutq engil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi, O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shartmasligi, ritmik to'xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

She'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she'rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) she'rdagi notanish so'zlar ustida ishlash.

Tolib Yo'ldoshning "Kuz kelganda" she'ri(52-bet)ni izohli o'qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) She'rda tasvirlangan bahor belgilari haqida suhbat (analiz);
- 3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) uyda she'rni ifodali o'qish va yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) keyingi darsda she'rni ifodali o'qitish, ifodali yoddan aytirish.

Kuz kelganda, uyimizda to'y bo'ladi,
Qo'zichog'im o'sib katta qo'y bo'ladi.
Uzumlarni pay uramiz, qovun osib,
Hamma yoqni yoz ne'mati ketar bosib.
Qopda yong'oq, xumda shinni qish bo'yiga,
Ko'zimiz to'q, dimog'lar chog' xush bo'yiga.

She'r yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. She'rni ovoz chiqarmay o'qing.

2. "Yoz ne'mati" deganda nimalarni tushunasiz? "*Hamma yoqni yoz ne'mati ketar bosib*" misrasining mazmunini so'zlab bering.

3. O'zingiz yashayotgan shahar, qishloq, tuman, viloyat va qishloq nomlarini ayting.

4. She'rni yod oling.

Yuqoridagi savollarga javob olgach, she'r matni ustida quyidagicha ish olib borishni tavsiya qilamiz.

1. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar: to'y – qo'y; osib – bosib; qish – xush.

Bo'ladi-bo'ladi va bo'yiga-bo'yiga so'zlari qofiyadan keyin keluvchi takror sanaladi, u qofiya emas.

2. She'rning qofiyalanish tartibi qanday?

She'rning qofiyalanish tartibi: a-a-b-b-d-d.

Shu o'rinda qofiya haqidagi bilimlar yana bir bor esga olinsa, ishning samarasi yana ham oshadi.

Qofiya – misralarning ohirida keladigan ohangdosh so'zlar. Qofiya she'riy nutqni ohangli va ta'sirli qiladi⁴⁸.

3. She'r hijosini aniqlang.

Hijo – bir nafas olish bilan aytiladigan so'zdagi tovush va tovushlar birikmasi – she'riy nutq o'lchovidvida dastlabki ritmik bo'lak⁴⁹.

She'r hijosi:

Kuz kel-gan-da, / u-yi-miz-da / to'y bo'-la-di,

Qo'-zi-cho-g'im / o'-sib kat-ta / qo'y bo'-la-di.

She'r o'n ikki hijoli, ikki turoqdan tuzilgan (4+4+4).

Turoq – barmoq vaznidagi she'r misralaridagi ritmik bo'laklar. Turoq she'rning ohangini tartibga solish, ya'ni she'rning ritmini va musiqiylikini vujudga

⁴⁸ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.267.

⁴⁹ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.271.

keltirishda asosiy vositalardandir. She'riy misralarda ikki, uch va undan ortiq turoqning bo'lishi mumkin⁵⁰.

4. She'rdagi qaysi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan?

She'rda quyidagi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan: uyimizda to'y bo'ladi, yoz ne'mati ketar bosib, ko'zimiz to'q.

Ma'lumki, so'zning yangi ma'no kasb etishi – ko'chma ma'noda qo'llanilishi biron bir ob'ektiv sabablar asosida ro'y beradi. Bunda ma'lum narsa, belgi, harakat bildiruvchi so'z qandaydir o'xshashlik, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik, vazifadoshlik kabilar asosida boshqa bir narsa, belgi, harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi, uning ham nomi sifatida ishlatila boshlaydi. Ma'no ko'chirilishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik degan turlari mavjud.

Kichik hajmli she'riy asarlarni o'qitishda ham reja asosida hikoyalashni amalga oshirish mumkinmi? Albata, bunday asarlar bilan ishlashda reja asosida ishlash biroz qiyin kechsa-da ta'limda samarali foydalanish mumkin.

Reja:

1. Kuz kedi.
2. Mevalar pishdi.
3. Qishga hozirlik ko'rdik.

Reja asosida quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

O'lkamizga oltin kuz kirib keldi. Yozning jazirama issiqlari tugab, jonga huzur beruvchi salqin kuz havosi boshlandi. Kunlar juda sekinlik bilan salqinlay boshlagani uchun ob-havo juda keskin emas. Kuzning birinchi kuni Mustaqilligimizning 21 yilligini zo'r tantana bilan nishonladik. Ikkinchi sentabr kuni esa "Bilimlar bayrami"ni ham katta shodlik bilan o'tkazdik. Kuz bayramlarga juda boy.

Kuzda olma, shaftoli, nok, olxo'ri, anor, xurmo, yong'oq, uzum, sabzi, piyoz, kartoshka, sholg'om, turp pishadi. Bog'bonlar bog'dagi mevalarni yig'ib-terib olishgach daraxtlarga ishlov berishadi. Dehqonlar hosilni yig'ib olishib

⁵⁰ Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.229.

yerlarni haydashadi, ba'zi maydonlarga bug'doy, arpa, roj, raps kabi dukkakli ekinlarni ekishadi.

Hamma qishga hozirlik ko'radi. Oila boshliqlari omborxonalarni kuzgi meva, poliz ekinlari va sabzavotlar bilan to'ldiradilar. Uy hayvonlari uchun xashak jamg'aradilar. Ba'zi mirishkor dehqonlar qishda ham dasturxonimizdan ko'katlar uzilmasligi uchun ochiq maydonga ismaloq, issiqxonalarga esa kashnich, ukrop, bodring, pomidor ekishadi.

O'quvchilar kichik hajmli she'rni qayta bayonini shu asosda tashkillasalar, ish juda oson kechadi. O'quvchilarning fikrini ketma-ket – uzviy bayon etishlariga o'rgatishda muhim vosita sanaladi.

Darslikning 54-betida Yo'ldosh Sulaymonning “Kuz” she'ri⁵¹ keltirilgan.

Marvarid kuz
Qildi ko'z-ko'z
Bisotida borini.
Bog'da hil-hil
Meva xil-xil
Sanab bo'lmas barini.
Istasangiz
Saylab-saylab
Husaynidan uzasiz.
Nok, shaftoli,
Anjir boli
Xuddi qaymoqmi deysiz.
Ko'ngil ochar
G'ashlik qochar
Oralasang pushtani.
Chindan arzir
Ta'riflasang

⁵¹ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.53-54.

Kuzdagi nonushtani.
Shunday go‘zal,
Shunday asal
Ehson⁵² tutgan o‘zi kim?
Dehqon og‘am,
Dehqon tog‘am,
O‘sha dehqon amakim.

1. She’rni ifodali o‘qing.

2. Kuzda nimalar mo‘l-ko‘l bo‘ladi?

Kuzda hamma mevalar, poliz ekinlari g‘arq pishib yetiladi. Bog‘larda nok, olma, yong‘oq, shaftoli, anor, uzum, behi, xurmolar pishgani uchun ularni yig‘ib omborlarga joylaymiz. Polizda tarvuz, qovun, oshqovoq yetilsa, sabzi, kartoshka, piyoz, baqlajon, bolgar qalampiri kabi sabzavotlar pishadi.

3. She’rda kuzdagi nonushta haqida nima deyilgan? Shu bandni o‘qing.

Ko‘ngil ochar

G‘ashlik qochar

Oralasang pushtani.

Chindan arzir

Ta’riflasang

Kuzdagi nonushtani.

4. “Ehson” so‘zini qanday tushunasiz?

EHSON [arabcha. – yaxshilik samimiylilik, muruvvat; biror narsani hadya qilish; xayr-sadaqa] **1** Xayrli, savobli ish, kori xayr; ezgulik. *Baxil ehsrndan qochar, xasis – mehmondan.*

3 Umuman, hadya, in’om. *Yozning ehsoni, olinglar, aziz mehmonlar!* Oybek Ulug‘ yo‘l⁵³.

Bu mevalarni kimlar yetishtirgan?

⁵² Ehson – hadya, ih’om, sovg’a.

⁵³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – 5-том. – Б.69.

Shirin-shakar kuz mevalarini mehnatkash dehqon bobolarimiz yetishtirganlar.

She'rni yod oling.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, she'r tuzilishi yuzasidan quyidagicha ish olib borish o'quvchilarning she'r tuzilishiga oid bilimlarini kengaytiradi.

1. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar: kuz – ko'z; hil – xil; borini – barini; go'zal – asal; og'am – tog'am; kim – amakim.

2. She'ring qofiyalanish tartibi qanday?

She'ring qofiyalanish tartibi: a-a-b-d-d-b.

Shu o'rinda qofiya haqidagi nazariy bilimlar yana bir bor esga olinadi.

3. She'r hijosini aniqlang.

She'r hijosi:

Mar-va-rid kuz

Qil-di ko'z-ko'z

Bi-so-ti-da/bo-ri-ni.

Bog'-da hil-hil

Me-va xil-xil

Sa-nab bo'l-mas /ba-ri-ni.

She'r to'rt va yetti hijoli, 1-,2-,4-,5-misralar to'rt hijoli bo'lib, bir turoqli, 3-va 6- misralar yetti hijoli bo'lib, ikki turoqdan tuzilgan (3+4).

4. She'rdagi qaysi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan?

She'rda quyidagi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan: marvarid kuz, qildi ko'z-ko'z, bisotida borini, xuddi qaymoqmi deysiz, g'ashlik qochar.

“Bog'da hil-hil Meva xil-xil” misrasidagi hil va xil so'zlari o'zaro paronim bo'lib, izohli yoki paronimlar lug'atidagi izohi bilan o'qituvchi tanish bo'lmog'i lozim.

HIL-HIL: hil-hil pishmoq Etilib, yumshab pishmoq. Hil-hil pishgan yumshoq kabobni piyoz qo'shib yeya boshladi. Oybek, Ulug' yo'l⁵⁴.

⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – 5-том. – Б.530.

XIL [*arabcha* – xususiyat, sifat] biror narsaning navi, turi; zot, jins. *Atlasning yetti xil rang jilosi*⁵⁵.

She'r yuzasidan suhbat o'tkazishda fikrning tartibli olib borish uchun reja tuzish eng maqbul ish sanaladi.

Reja:

- 1.Kuzgi bog'ning tasviri.
- 2.Poliz ekinlari ham g'arq pishdi.
- 3.Kuzgi serobchilik uchun dehqonlarga rahmat.

Reja asosida quyidagicha bog'lanishli matn tuzish mumkin:

Kuz kelishi bilan havo salqinlasha boshlaydi. Daraxtlarning barglari yashillikdan sariq va qizilga moyil ranglarga aylana boshlaydi. Issiqsevar qushlar o'zlariga yoqadigan yurtlarga parvoz qiladi. Sovuqni hushlaydigan qushlar o'lkamizga uchib keladi. Bog'dagi mevalar g'arq pishib, sharbatga to'lganligi sababli ularni qish uchun omborxonalarga jamg'ariladi. Mevalarning barglari to'liq tushib bo'lgach, qishki uyquga ketganlarida bobodehqon ularga chiroyli shakl beradi. Tagini yumshatib, kuzgi suvini beradi.

Polizlarda o'zini semizlikdan eplay olmagan tarvuz, qovun va oshqovoqlar dumalab yotibdi. Yil bo'yi qilingan mehnati samarasini ko'rgan mirishkor hosildan xursand. Mana polizga yuk mashinalari ham kirib keldi. Biz bobomizning yetishtirgan poliz mahsulotlarini ehtiyotkorlik bilan mashinalarga joylashga kirishdik. Hosilning mo'lligidan bir necha fursatda mashinalarni yukka to'ldirdik. Mashinalar hosilni olib karvondek tizilishib omborxonalarga yo'l olishdi.

Qaerga qaramang, hamma yoqda kuz mevalari liq to'la. Dalalarimizda yetishtirilgan meva, sabzavot va poliz ekinlarini ko'rib ko'zing quvnaydi, ta'mini totib diling shodlanadi. O'lkamizda yetishtirilmaydigan mevalarning o'z yo'q. Xohlagan ekin tomarqamizda bor. Bularni yetishtirish uchun biroz qunt bo'lsa yetarli. Shu sababli men ham tomarqamizga kuz kelishi bilan sarimsoqpiyoz, ukrop, kashnich, ismaloq, piyoz, sholg'om, turp, qizilcha, bug'doy, arpa, roj kabi ekinlarni ekaman. Bu ekinlar qish bo'yi bog'imizni ko'm-ko'k qilib turadi. O'z

⁵⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – 4-том. – Б.397.

mehnatigizning samarasini kuzatish qanday mazza! Istiqloq bergan ozodlik bog‘larimizning ko‘rkini ham tarovatli qilib yubordi.

Darslikning 63- betida Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she‘ri⁵⁶ berilgan.

Bo‘lib o‘tdi qishloqda
Kecha zo‘r shamol.
Natijada ro‘y berdi,
Anchayin kor-hol.
Uzum boshi aylanib,
Bo‘p qoldi kasal.
Shoxdan yiqilib olma,
Yotibdi o‘sal.
Hatto gilos lat yedi,
Bo‘lsa ham abjir.
To‘qnashuvda anorga
Chaplandi anjir.
Shamollatdi qornini,
Oshqovoq polvon.
Pachoq qildi burnini,
Mulla baqlajon.
Uyquchiroq bir tarvuz,
Yumalab borib,
Uyg‘otibdi qovunni
Boshini yorib.
Noklar yerga to‘kildi,
Bo‘lishib bir tom.
Ammo zarar ko‘rmadi
Sabzi va sholg‘om.

⁵⁶ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.63.

She'r yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Shamol nimalarga zarar yetkazdi?
2. Nima uchun qovunning boshi yorildi?
3. Nimalar zarar ko'rmadi? Nima uchun?
4. Bu hodisa qaysi faslda bo'ladi?
5. Mavzuga mos topishmoqlar ayting.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, she'r tuzilishi yuzasidan quyidagicha ish olib borish o'quvchilarning she'r tuzilishiga oid bilimlarini kengaytiradi.

1. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar: shamol – kor-hol; kasal – o'sal; abjir – anjir; polvon – baqlajon; borib – yorib; jom – sholg'om.

2. She'rning qofiyalanish tartibi qanday?

She'rning qofiyalanish tartibi: a-b-d-b.

Shu o'rinda qofiya haqidagi nazariy bilimlar yana bir bor esga olinadi.

3. She'r hijosini aniqlang.

She'r hijosi:

Bo'-lib o't-di/ qish-loq-da

Ke-cha zo'r/ sha-mol.

Na-ti-ja-da/ ro'y ber-di,

An-cha-yin/ kor-hol.

She'r yetti va besh hijoli, 1-,3-misralar yetti hijoli, 2- va 4- misralar besh hijoli bo'lib, ikki turoqdan tuzilgan (4+3 va 3+2).

4. She'rdagi qaysi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan?

She'rda quyidagi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan: uzum boshi aylanib bo'p qoldi kasal, shoxdan yiqilib olma yotibdi o'sal, gilos lat yedi, oshqovoqning qorni shamollab qoldi, mulla baqlajonning burni pachoq bo'ldi, tarvuz qovunning boshini yordi.

She'rda badiiy san'atning go'zal namunasi jonlantirishdan juda keng va samarali foydalanilgan. Yuqoridagi ma'no ko'chishga keltirgan misollarimizning

hammasi jonlantirishga asos bo'la oladi. Shu sababli bu san'at haqida quyida qisqacha ma'lumot keltirish o'rinli sanaladi.

Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san'atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir.»⁵⁷ «O'zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi»ga⁵⁸ jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

1.**Tashxis** – shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir ob'ektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she'riy parchada muallif «uzum»ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

Uzum boshi aylanib,

Bo'p qoldi kasal.

2.**Intoq** – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmidagi **allegoriya** deb ataladigan ko'chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda «hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada

⁵⁷ Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. ТДПУ, 2001. – Б.11.

⁵⁸ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р, Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б.245.

obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori.»⁵⁹

O'quvchilar bilan she'r matni ustida ishlangach, quyidagi reja bilan ishlashni tatbiq qilamiz.

Reja:

1. Qattiq shamol kedi.
2. Mevalar ancha shikast yedi.
3. Poliz ekinlari zarar ko'rmadi.

Reja asosida quyidagicha hikoyalashni tashkillash mumkin.

Kuz kunlarining birida qishloqda qattiq shamol bo'lib o'tdi. Natijada tabiatda meva, sabzavot va poliz ekinlari anchayin kor-hol ko'rishdi. Uzum shamolning zo'ridan boshi aylanib, o'zini bilmay kasal kishi singari betob bo'lib qolibdi. Olma shoxidan yiqilib tushib o'sal kasalga chalinibdi. Gilos abjir bo'lsa-da biroz lat yebdi. Shamolning kuchliligidan anjir anorga chaplanib qolibdi. Oshqovoq ochiq yerda bo'lganligi sababli qornini shabodalatib oldi. Baqlajon burnini urib pachoq qildi, uyquchi tarvuz dumalab borib qovunning boshini yorgach uyg'onibdi. Noklar shamolning zo'rligidan yerga duv to'kildi, bu jangda sabzi va sholg'om yer tagida bo'lganligi sababli shikast olmadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, ta'lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq.

Shunday ekan, avvalo, o'qituvchiga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumoti va malakasini oshirishda «...bir qolipdagi ta'lim-tarbiya tizimiga xos sarqitlardan qutilish» zarur. Yoshlarning ilmiy ijodiy faoliyatini

⁵⁹ Шомақсудов А. ва бошқ. Ўша асар. Б.46.

chegaralamaydigan, uni faol tinglovchiga emas, balki faol ijodkorga aylantiradigan kashfiyot ta'lim usuli bilan ishlash o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarini yo'lga qo'yadigan to'g'ri va samarali imkoniyatlarni topish va ishga solish zarur.

O'quvchilarni to'g'ri, tushunib va ifodali o'qishga o'rgatish, o'qish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida xam muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri tushunib va belgilangan me'yorda ifodali o'qish malakalari yaxshi rivojlansa, ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa:

1. Uchinchi sinf o'qish darsligidagi asarlarni o'qitish barobarida istiqloq farzandlarining kelajak orzulari ushalishi matnlar mazmunida aks ettirilgan.

2. Uchinchi sinf o'qish darsligida berilgan matnlar badiiy asar o'qishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga xizmat qila oladi.

3. Uchinchi sinf o'qish darslarida o'quvchilar lug'atini boyitish vositasi sifatida lug'at ustida ishlash tamoyili shartlariga rioya qilib ish ko'rilgan.

4. Darslikdagi she'riy asarlarni o'qitish uchun ta'limning zamonaviy yo'llarini doimo tatbiq etish o'qitishning yuqori saviyaga ko'tarishiga xizmat qiladi.

5. She'riy asarlarni o'qitish o'quvchilarni ifodali o'qishga tayyorlaydi, bu asosida ularning nutqlarini o'stirishga darslik matnlari mos va xosdir.

6. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchi va o'quvchidan katta mahorat talab qiladi, shu sababli berilgan she'rlar tematikasi va mualliflari rang-barang.

7. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish uchun ularning hayotlaridagi hayajonli tasvirlar aks ettirilishiga erishilgan.

8. Darslikdagi she'rlar engil yodlab olinadi, shu sababli bolada estetik his-tuyg'uni o'stirishga xizmat qila oladi.

UMUMIY XULOSALAR

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirish, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy hikmatlarni singdira bilishi lozim.

1. O'qish malakasini takomillashtirish, ya'ni o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish uchun yuqorida tahlil etilgan darslik to'la javob beradi, negaki berilgan matnlar soddadan murakkabga tamoyili asosida tartiblangan.

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish borasidagi maqsadni amalga oshirish uchun darslik yaxshi vosita, sababki keltirilgan matnlar tematik rang-barang, foydalanish uchun juda qulay, istiqlol farzandlarini tarbiyasiga mos matnlar o'qitishga kiritilgan.

3. O'quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish uchun mamlakatimizning go'zal manzarasi, shahar, qishloqlari haqida ma'lumotlar yetarli bo'lib, bolalarning baynalmilal ruhini o'stirishga xizmat etadigan matnlar maqsadga muvofiq berilgan.

4. O'quvchilar axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga xizmat etadigan do'stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonni qadrlash ruhidagi matnlarga keng joy berilgan.

5. O'quvchilarni nutqini va tafakkurini o'stirish uchun yangi lug'atlar tadrijiy asosida keltirilgan, matnlar so'ngida qayta hikoyalash talab etilibgina

qolmay, matnga reja tuzish, qayta hikoyalash, mavzuga mos rasm chizish kabi topshiriqlar amaliy bajarishga tavsiya qilingan.

6. O'quvchilarning adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish uchun maqol, hikmatli so'z, topishmoq, ertak, masal janrlari haqida nazariy ma'lumot keltirilib, amaliy ishlash uchun matnlar tavsiya etilgan.

7. Darslikni har tomonlama tahlil etish barobarida uni boshlang'ich ta'lim tizimimizdagi eng maqsadga muvofiq mazmunan yetuk, amaliy qulay, zamonaviy darslik bahosini berishni lozim deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I

1. Uzviylashtirilgan boshlang'ich sinf davlat ta'lim standarti. – 2010.
2. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi. – Toshkent, 2010.
3. Vazirlar Mahkamasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlari. Xalq ta'limi. 1997. – №1.

II

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston. – 1995.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 528 b.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 14 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

III

1. Abdullaeva D. Yangi pedagogik usullarda dars o'tishni ta'minlashda foydalaniladigan usullar. – Andijon, 2001.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – T.: Fan, 1981.
3. Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar, – T., NDA, 1997. – 24 b.
4. Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov M. O'zbek tili. – T: O'qituvchi, 1989.
5. Ashrapova T., Odilov M. Ona tili metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
6. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 124 b.
7. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

8. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
9. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
10. Yo'ldoshev M. va boshq. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 124 b.
11. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
12. Mahmudov N. Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir// O'TA, 1987, №4. B.34-36.
13. Mahmudov N. Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi // O'TA, 1985, №6. B.48-51.
14. Mahmudov N. Har bir so'z bersin sado // O'TA, 1987, 13 fevral, №7.
15. Rahmatullaev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 216 b.
16. Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 98 b.
17. Sodiqova M., Usmonova O'. O'zbek tilining orfoepik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1977.
18. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
19. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
20. Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 240 b.
21. Shukuruv R. Sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari.//O'TA, 2004, №2, B.73.
22. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: FAN, 1975. – 610 b.
23. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
24. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'ME, 2006-2008. – 5 tomli.

- 25.O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 288 b.
- 26.Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – 216 b.
- 27.G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 160 b.
- 28.G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- 29.G‘ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- 30.Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya. 2009. – 672 b.
- 31.Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – B.74.
- 32.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘ME, 2002.
- 33.Homidiy H... Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 300 b.
- 34.Matchonov S., Shojalilov A. va boshq. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraph service, 2011. – 240 b.
- 35.Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
- 36.Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 224 b.
- 37.G‘afforova T. v.b. O‘qish kitobi. 1- sinf. – Toshkent: Sharq, 2010. – 128b.
- 38.G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2- sinf. – Toshkent: Sharq, 2012. – 176 b.

IV

- | | |
|---|---|
| 1. www. tdpu.uz | 4. www. edu. uz |
| 2. www.pedagog.uz | 5. tdpu-INTRANET. Ped |
| 3. www. Ziyonet. uz | |

ILOVALAR

1-ilova

Lugʻat
A
Afv – kechirim, uzr
Ajnabiy – chet ellarga yoki chet elliklarga oid; xorijiy
Ardoqlaydi – ayaydi, avaylaydi
Ark – xon saroyining mustahkamlangan qismi; saroy
Armon – amalga oshmagan orzu yoki oʻz vaqtida qilinmagan ish tufayli koʻngilda qolgan oʻkinch
Ayamajiz – ayyom(i) ajuz – qishning oxirgi haftasi
Asrandi – boshqa ota-ona qaramogʻiga farzandlikka olib tarbiya qilish
B
Bandi – asir tushgan odam, tutqun
Bigiz – poyabzal doʻzlarning yogʻoch sopli asbobi
Behuda – foydasi yoʻq, hech keragi yoʻq, befoyda
Bekvachcha – bekdan tugʻilgan bola; bekozda
Bemador – madorsiz, kuchsiz, darmoni yoʻq
Bemajol – kuchsiz, darmoni yoʻq
Boʻz – qoʻl dasgohida paxta ipidan toʻqilgan mato
D
Donishmand – koʻp narsani biladigan, bilimdon, olim, dono
Doro – Eron davlatining podshohi
E
Ehtirom – yuksak hurmat, izzat-ikrom
Eʼzoz – hurmat, izzat
F
Faqirona – hech narsasi yoʻq, kambagʻal
Farovon – har jihatdan toʻla-toʻkis, hamma narsasi moʻl-koʻl
Faxr – mamnunlik hissi, mamnuniyat, gʻurur

Firqa – guruh, to‘da
Fuqaro – biror mamlakatning doimiy kishisi
Fursat – biror ishni bajarish uchun eng qulay vaqt
G
Go‘sha – odamlar nazaridan uzoq yer, ovloq joy, turar joy
Gadoyvachcha – gadoy bolasi
H
Hakim – o‘tkir tabib, shifokor
Himmat – birovga qilinadigan yaxshilik, marhamat, yordam
Hijron – ayriliq, judolik
I
Ittifoq – guruh, jamiyat yoki davlatlarning birlikda ish olib borishi uchun tuzilgan birlashmasi, uyushma
Iltifot – kishiga yaxshi munosabat, diqqat-e’tibor
Iste’mol – ishlatish, foydalanish, yeyish-ichish
Imon – ilohiy kuchga bo‘lgan ishonch, e’tiqod
J
Jam – yig‘ilgan, to‘plangan
Jarohat – shikastlangan, singan, chiqqan, yaralangan joy
Jiddiy – puxta o‘ylab ish ko‘radigan, mulohazali
Jur‘at – xavf-xatar, qiyinchiliklardan hayiqmay qilingan jasorat
K
Kayfiyat – ahvol, holat va kishining ruhiy holati
Kashf – kashf qilmoq, yaratmoq
Klaviatura – turli xil mexanizmlardagi klavishlarning jami
Knopka – qog‘oz matolarni qattiq narsaga qadab qo‘yish uchun ishlatiladigan keng qalpoqchali, bosma mixcha
Kulfat – qiynaydigan, azob beradigan holat
Ko‘hna – uzoq o‘tmishdan davom etib kelayotgan, qadimiy
L


Lavozim – amal, mansab
M
Manzil – safarda, yo‘lda to‘xtab o‘tiladigan yoki yetib borish mo‘ljallangan joy
Marsiya – biror shaxs vafoti munosabati bilan uning xotirasiga bag‘ishlab yozilgan motam she’ri
Matonat – bardosh, chidam, sabot
Maxluq – inson va butun jonivorlarning, tirik mavjudotning umumiy nomi
Maxdum – ulamo va ruhoniylar unvoni va shu unvonga ega bo‘lgan kishi
Manglay – peshona
Mezbon – mehmon kutuvchi, ziyofat, to‘y egasi
Mijoz – doimiy xaridor
Minnat – 1)qilingan xizmat, yaxshilik uchun bo‘lgan qarzдорlik; 2)qilingan yaxshilikni yuzga solish yokibirovlarga gapirib berish
Mirzaboshi – o‘zbek xonliklaridagi mirzaxona boshlig‘i
Mirza – yozuv-chizuv ishlarini olib borgan kishi; kotib
Misli – kabi, singari, bamisoli
Mijoz (mizoj yozilgan) – kishining o‘ziga xos tabiati
Moviy – tiniq, ko‘k, havorang
Mufti – shariat qonunlarini talqin qiluvchi, shariat va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi lavozimli ulamo
Mungli – g‘amgin, ma’yus
N
Naf – biror ish yoki narsadan olingan ijobiy natija, foyda
Navkar – feodal hukmdorlarning harbiy xizmatkori, askari
Nizo – o‘zaro kelishmovchilik, dushmanlik orqasida tug‘ilgan holat, munosabat
Notavon – zaif, nimjon, nogiron, nochor
O
Otaliq – moddiy, madaniy yordam ko‘rsatishni nazarda tutib, tashkilot yoki kishilarni bir-biriga bog‘lash asosidagi ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy burch
P
Parhez – sog‘liqqa to‘g‘ri kelmaydigan ovqatlardan o‘zini tiyish va uning tartibi



Parishon – har tomonga sochilgan, tartibsiz, to‘zg‘igan
Q
Qadr – hurmat, e‘tibor
Qaroqchi – yo‘lto‘sar
Qit‘a – Yerning dengiz va okeanlar bilan qurshalgan oltita alohida qismlaridan biri
Qiyofa – tashqi ko‘rinish, tus
Qulun – bir yoshga to‘lmagan toycha, toychoq
Qo‘g‘irmoch – qozonda qovurilgan bug‘doy
R
Radiatsiya – biror nurlanuvchi jismdan, masalan, Quyoshdan chiqadigan elektromagnit nur, energiya, Quyosh radiatsiyasi
S
Samoviy – osmonga, samoga oid
Sarbon – karvonboshi (ko‘chma ma’noda yo‘lboshchi)
Sarvar – yo‘lboshchi, rahnamo
Sayyora – Quyosh atrofida aylanuvchi va undan nur oluvchi osmon jismi
Sekund – soniya (daqiqaning 60 dan bir qismi)
Suvori – ot mingan kishi, otliq
Sur‘at – ish-harakatning jadalligi
So‘lim – beg‘ubor, sof, go‘zal va yoqimli
So‘zan – etikdo‘z kosiblar ishlatadigan igna
T
Tanob – yer o‘lchov birligi
Tarh – ko‘rinish, loyiha
Taajjub – kishini hayratda qoldiradigan, ajablantiradigan, ajablanarli, hayronlik
Tanho – yakka, yolg‘iz
U
Ulamo – olim, olimlar
Ummat – bir millat, bir dinga mansub kishilar
Ungur – tog‘lardagi tik o‘yiq joy, g‘or



X
Xulq – kishining xatti-harakati
G‘
G‘arib – kimsasiz, musofir, biror homiysi, ko‘makchisi bo‘lmagan, kimsasiz odam
G‘urbat – g‘am-g‘ussa, xafalik
Z
Zarb – qattiq urilish, kuch, shiddat
Zobit – ofitser
O‘
O‘zlik – har bir kishining shaxsiyati, tabiiy holati, borlig‘i
Sh
Sha‘n – yuksak insoniy fazilat, qadr-qimmat, yaxshi nom
Shiroq – sak qabilasidan chiqqan cho‘pon yigit, podachi
Shon – mahsi yoki etik qo‘njiga uriladigan qolip
Ch
Chilpish – daraxtlarning, shoxlarning uchlarini kesish



Rasmlar ilovasi









































39-ilova



